

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

SHARIPOVA MA’MURA ULUG‘BEK QIZI

**“ALPOMISH” DOSTONIDA QO‘LLANILGAN BARQAROR
BIRIKMALARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.**

**(Fozil Yo‘ldosh, Xushboq Mardonqul va Saidmurod Panoh o‘g‘li
variantlari asosida).**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**5120101 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat
ta’lim yo‘nalishi**

Ilmiy rahbar:

f.f.n.Sh.Mahmadiyev

Rasmiy taqrizchi:

dots.F.Shodiyev

Malakaviy bitiruv ishi o‘zbek tilshunosligi kafedrasining 2018-yil
28- maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAK himoyasiga tavsiya etilgan
(11 -son bayonnoma).

Kafedra mudiri:

f.f.d.A.Pardayev

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2018-yil ____ iyundagi yig‘ilishida
himoya qilingan va ____ foiz bilan baholangan. (____ -son bayonnoma)

YaDAK raisi:

prof. Sh.Shahobiddinova

A’zolari:

MALAKAVIY BITIRUV ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Milliy o'zlikni anglash Istiqlol bergan buyuk ne'mat sanalar ekan, Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoev aytganlaridek: "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Yangi tahdidlar, jumladan, «ommaviy madaniyat» xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odoab-axloq, qadriyatlarning yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi"¹, - degan fikrlari hayotiy xulosalar sifatida milliy va ma'naviy merosimizga oid manbalarimizni yanada keng miqyosda o'rganishga da'vat etadi. Zero, bu qarashlar xalqimiz tili tarixini, uning tarkibiy qismi bo'lgan folklor asarlari tilini lingvopoetik va lingvostilistik yo'nalishda o'rganishga ham safarbar etuvchi g'oya vazifasini o'taydi.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi janrlari orasida dostonlar alohida o'rin egallaydi. O'zbek folklorshunoslari xalq og'zaki ijodi janrlari orasida eng yirigi bo'lgan dostonlarning to'rt yuzga yaqin matnlarini bir necha variantlarda yozib olish va nashr etish, ijtimoiy hayot va badiiyatning umumiy fonida ularning tutgan o'rini belgilash orqali g'oyatda mas'uliyatli hamda mushkul vazifani ado etdilar va tadqiqotlarni hozirda ham davom ettirmoqdalar.

O'zbek tilshunosligida folklor asarlari, xususan, dostonlar matnining til xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan bir qancha tadqiqotlar bajarildi va ular hozirda ham davom ettirilmoqda.²

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. – Б.29. – 592 б.

² Абдурахмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. – Т., 1971.; Уринбаев Б., Турсунов С. Лексико-фразеологические особенности дастана «Алпамыш». - Самарканд, 2009.; Ўринбоев Б., Бозорбоев К. «Алпомиш» достони фразеологизмларининг таъбири. - Самарканд, 1998.; Тўйчибоев Б. «Алпомиш» ва халқ тили.- Т., 2001.; Раҳимов А.С. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида): Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Самарканд, 2002.; Yo'ldoshyev B., O'rinboyeva D. O'zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug'ati. - Toshkent, 2008.; Жуманазарова Г. Ўзбек халқ дostonлари матнининг лингвостатистик таҳлили. – Тошкент, 2011.

Folklor asarlari tili va uslubiga xos bo'lgan xususiyatlarning muhim bir qirradi – tasviriy vositalar silsilasida o'ziga xos shakl va mazmunga ega bo'lgan an'anaviy poetik birikmalar, ya'ni barqaror birikmalarning o'zbek dostonchiligidagi lingvopoetik xususiyatlari va uslubiy imkoniyatlari xususida so'z yuritish zaruriyati mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Barqaror birikmalar shu paytga qadar folklorshunoslik nuqtayi nazaridan ma'lum darajada tadqiq etilgan. Bunda ayniqsa, H.Zarifov, T.Mirzayev, I.Yormatov, S.Mirzayeva, M.Yoqubbekova, B.Rahmonovlarning tadqiqotlari xarakterlidir¹. Lekin barqaror birikmalarning lisoniy tabiati, grammatik strukturasi, folklor matnidagi o'rni, shu bilan birga lingvopoetik xususiyatlari o'zbek tilshunosligida kam darajada tadqiq etilgan.² Amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham muayyan baxshi repertuaridagi doston yoki dostonlar matniga oid barqaror birikmalar tahlili o'rin olgan. Mazkur malakaviy bitiruv ishida mavzu obyekti qilib olingan dostonlar matnidagi barqaror birikmalar lingvistik birlik sifatida qiyosan o'rganildi va o'zbek xalq dostonlari tilining tarkibiy qismi va poetikasining muhim unsuri sanalishi asoslandi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Samarqand davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2016-2020-yillarga mo'ljallangan «O'zbek tili lug'aviy va grammatik birliklarining funksional-pragmatik va kognitiv-uslubiy tahlili masalalari» mavzusi tarkibiga kiradi. Tadqiqot mavzusi o'zbek tilshunosligi

¹ Мирзаев Т. «Алпомиш» дostonининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968. - 172 б.; Ёрматов И. «Алпомиш» дostonи поэтикасининг баъзи масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1990. - № 5.- Б. 33-38.; Мирзаева С. Барқарор эпик формулалар поэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1999. -№ 6. - Б. 37-41.; Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. - Тошкент: Фан, 2005. - 160 б.; Раҳмонов Б. Ўзбек халқ эпик тузилишининг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти . - Тошкент, 1989. -№ 3. - Б. 36-39.; Раҳмонов Б. Анъанавий халқ эпосининг бadiий тили // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 2005. -№ 3. -Б. 21-24.

² Йўлдошев Б. Сўзлашув нутқи формулаларининг синтактик жиҳатдан ўрганилишига доир // «Ўзбек тили грамматик қурилиши масалалари» тўплами.- Самарқанд: СамДУ нашри, 1984. - Б. 56-60.; Раҳимов А.С. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида): Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2002. – Б. 7.; Маҳмадиев Ш.С. Ўзбек халқ дostonлари тилида стилистик формулалар. Филол. фан. номз. ...дис. автореф. –Тошкент, 2007. – Б. 3-4.; Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). – Тошкент, 2012. - 288 б.

kafedrasining 2017-yil 29-sentyabrida bo'lib o'tgan 2-son majlis qarori bilan tasdiqlangan.

Bitiruv ishining maqsad va vazifalari. Ushbu malakaviy bitiruv ishining bosh maqsadi barqaror birikmalarning klishe nazariyasi tizimida tutgan o'rnini, ularning xalq og'zaki poetik ijodidagi mavqeyini, lingvistik tabiati va qurilishini, har bir doston aytuvchi ijodida individual tarzda namoyon bo'lish sabablarini aniqlashdan iborat bo'ldi va tadqiqot jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutildi:

- klishe nazariyasining, jumladan, uning tarkibida qaraladigan barqaror birikmalarning lingvistik birlik sifatida o'zbek tilshunosligi va lingvofolkloristikasida o'rganilish tarixiga nazar tashlash;

- o'zbek tilidagi turg'un va barqaror birliklar tizimida ularning o'rnini belgilash, ularga o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi epik janrlariga xos bo'lgan tasviriyy vosita sifatida munosabat bildirish;

- barqaror birikmalarning lingvistik tabiati, xususan ularning lingvopoetik imkoniyatlari, epik asarlar matnida bajaradigan poetik va stilistik vazifalarini tahlil etish;

- olib borilgan kuzatishlar asosida doston kuylovchi baxshi-shoirlarning mazkur birliklardan foydalanish darajasi, ularning individual mahorati to'g'risida muayyan xulosalar bildirish.

Bitiruv ishining ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

- barqaror birikmalar tasviriyy vositalarning maxsus turi sifatida klishe nazariyasi tizimida alohida mavqeyga, klisheklarga xos bo'lgan an'anaviylik, barqarorlik, ixchamlik, ta'sirchanlik, obrazlilik kabi xususiyatlarga ega ekanligi ma'lum bo'ldi;

- ular o'zbek xalq dostonlari tilining tarkibiy qismi ekanligi va dostonlar poetikasining g'oyatda muhim unsuri sanalishi misollar asosida isbotlandi;

- barqaror birimlarning an'anaviy xarakteri, ayni paytda, doston kuylovchi uslubiga moslangan individual jihatlari aniqlandi;

- barqaror birikmalar tarkibida tayanch soʻzlar semantik birlik sifatida muayyan sememalarga birlashishi, morfologik va sintaktik qurilmalarning alohida shakllarini vujudga keltirishi hamda dostonlar matnida oʻrni bilan stilistik vositaga aylanishi isbotlandi.

Tadqiqot manbalari. «Alpomish» dostonining Fozil Yoʻldosh, Xushboq Mardonaqul va Saidmurod Panoh oʻgʻli variantlari asosiy tadqiqot obyekti vazifasini bajardi¹.

Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiq usullari. Ishni yozish jarayonida mazmun va shakl dialektikasi, Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev hamda Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovlarning maʼnaviy merosimiz va tariximizga munosabat haqidagi qarashlari hamda badiiy merosimizni oʻrganish tamoyillari, lingvopoetika sohasidagi nazariy fikrlar metodologik asos vazifasini oʻtadi. Tadqiqotda matnni oʻrganishning tavsifiy, qiyosiy, semantik-stilistik va statistik metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, oʻzbek tilshunoslaridan Sh.Shoabdurahmonov, U.Tursunov, X.Doniyorov, R.Qoʻngʻurov, X.Abdurahmonov, B.Oʻrinboyev, I.Mirzayev, R.Rasulov, S.Tursunov, B.Yoʻldoshev, S.Karimov, B.Toʻychiboyev, A.Rahimov, Sh.Mahmadiyevlarning tadqiqotlariga asos sifatida tayanilib ish koʻrildi.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi. Ish umumiy tavsif, kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

¹Алпомиш. Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони. Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. - Тошкент: Шарқ, 1998. - 400 б.; Алпомиш. Айтувчи: Хушбоқ Мардонақул ўғли. - Т.: Ёзувчи, 1998. - 208 б.; Alpomish. Aytuvchi: Saidmurod Panoh oʻgʻli. – Т.: Yozuvchi, 2000. - 174 б.

I BOB.

O‘ZBEK LINGVOFOLKLORISTIKASI TARAQQIYOTI VA UNDA XALQ DOSTONLARINING LINGVISTIK TADQIQI MASALALARI

Ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan boy ma'naviy boyliklarimizning katta bir qismini xalq og'zaki ijodi namunalari tashkil qiladi. Zero, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning «Bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim vazifalarni ko'z o'ngimizdan o'tkazar ekanmiz, aholining kundalik ehtiyojiga bevosita dolzarb masalalarni hal qilish bilan bir qatorda biz eski tuzum davrida inson hayotining negizi va murakkab tomonlari, milliy qadriyatlar, tarixiy an'analar, umuminsoniy ma'naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik jamiyatimizga qanchadan qancha zarar keltirganini unutmasligimiz kerak... Milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz – shu xazinini ko'z qorachig'idek asrash va yanada boyitish»¹, degan fikr va qarashlari milliy hamda ma'naviy qadriyatlarimizning ma'lum bir bo'lagini tashkil etuvchi xalq og'zaki ijodi, xususan, uning yirik janrlaridan biri hisoblangan dostonlar matnini keng miqyosda o'rganishga da'vat etuvchi g'oya vazifasini o'taydi.

1.1. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari doirasida dostonlarning tutgan o'rni.

Ma'lumki, o'tgan davr mobaynida o'zbek folklorshunosligi alohida fan sifatida shakllandi va taraqqiy topdi. Xalq og'zaki ijodi (bundan keyin - XOI) namunalarining juda katta qismi to'planib nashr etildiki, ular bugungi kunda xalqimiz ma'naviy-badiiy merosining oltin xazinasiga aylandi. Ularning ko'lamini faqatgina o'zbek folkloriga oid materiallarni to'plash va nashr ettirishdangina iborat bo'lib qolgan emas. Balki bu folklor materiallarining janrlar yo'nalishidagi poetikasi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini tadqiq etish va shu orqali o'zbek xalq

¹ Islom Karimov Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008. - B.78.

poetik merosiga daxldor nazariy mulohazalarni bayon etishdan iborat bo'lgan masalalarni ham qamrab oladi.

Mavzuga bevosita daxldor bo'lganligi uchun shuni ta'kidlashni istar edikki, birgina dostonchilik va uning tadqiqi sohasida amalga oshirilgan ishlarning o'zi ham tahsinga loyiqdir.

XOI janrlari orasida eng yirigi bo'lgan, ayni zamonda, o'zining badiiy va lingvistik-struktural xususiyatlari bilan boshqa janrlardan keskin ajralib turadigan epik asarlar – xalq dostonlari «haqiqiy va ideal tarix birlashib, chatishib ketgan olamshumul voqealarni tasvirlagan, xalqimizning axloqiy, falsafiy, diniy qarashlarini, hayoti, urf-odatlarini va maishatini qomusiy bir tarzda ifodalagan o'tmish yodnomalaridir»¹.

Ularni yozib olish va nashr ettirish, ijtimoiy hayot va badiiyatning umumiy fonida tutgan o'rnini belgilash g'oyatda mas'uliyatli va mushkul vazifa sanalar edi. Shunga qaramasdan, tadqiqotchilar dostonchi-baxshilar tilidan yuzga yaqin, variantlari bilan esa to'rt yuzga yaqin matnlarni yozib oldilar².

Quvonarli tomoni shundaki, bugunda ham bunday ko'lamdagi keng qamrovli ishlar sistemali tarzda davom ettirilmoqda. Xususan, o'zbek xalq og'zaki ijodiyotining eng nodir durdonalaridan iborat “O'zbek xalq ijodi yodgorliklari” yuz jildligining nashrga tayyorlanayotgani va uning hozirda o'n jildi nashr etilganligi ana shunday islohotlarning samarasidir deyishimizga to'laqonli asos bo'ladi.³

Ayniqsa, mazkur ulkan xazinaning 1-jildida o'quvchilariga yozilgan murojaatidagi teran fikr-mulohazalar diqqatga sazovor: “Xalq ijodi deganda, bevosita ko'z o'ngimizda ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan, millatimizning tarixi, buguni va kelajagini o'zida tarannum etgan «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Rustamxon», «Kuntug'mish», «Orzigul», «Qironxon» kabi muazzam dostonlar, purma'no ertaklar, maqol-matallar, hassos va o'ynoqi xalq qo'shiqlari, afsona-yu rivoyatlar namoyon bo'ladi. Avloddan-avlodga og'zaki

¹ Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б. 228.

² Раззоқов Х., Мирзаев Т., Собиров О., Имомов К. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 20-48.

³ Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015, 2016.

tarzda o'tib kelayotgan bu tafakkur durdonalari milliy ma'naviyatimizning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi mutassil harakatdagi ijodiy jarayon bo'lib, millat o'z milliy ma'naviyatini yillar, asrlar davomida yuksaltirib, boyitib boradi. Ularda kuylangan yuksak insoniy tuyg'ular, ilgari surilgan ezgu g'oyalar barcha zamonlarda kishilarni yaxshi amallar, bunyodkorlik ishlariga ilhomlantirib kelgan. Bu durdonalarning jonli ijro jarayonida bugungacha yashab kelayotgani millatning o'z o'tmishini unutmagani, o'zligi saqlab qolgan holda ertangi yorug' istiqboliga umidbaxsh nigoh bilan boqib turganidan dalolat beradi. O'zbek xalqi dunyoga qomusiy allomalar va zabardast so'z san'atkorlarinigina berib qolmay, o'zi ham betakror ijodkordir. Tabiiyki, nashr etilayotgan 100 jildlik bu bebaho merosning hammasi emas, balki ularning saralab olingan eng mukammal namunalaridir. Turli mavzu va janrlardagi bu tengsiz xazinaninig o'zi xalqimizning naqadar donishmandligini ko'rsatib turibdi.¹

1.2. O'zbek xalq dostonlarining lingvistik tadqiqi va uning kelgusidagi ayrim muammolari haqida.

Albatta, folklorshunos olimlarimizning o'zbek fani va ma'naviyatiga, xususan, folklorshunosligiga qo'shayotgan munosib hissalariga xolisona baho berish shu soha tadqiqotchilarining zimmasida turadi. Yutuqlarni qayd etish barobarida biz unga bevosita bog'liq bo'lgan ikkinchi bir jihatga e'tiborni qaratmoqchimiz. Ya'ni, bu – o'zbek xalq og'zaki ijodi (bundan keyin – O'XOI) materiallari tilini tadqiq etish masalasidir. Masalaning bu ikki jihatini bir-biriga taqqoslab ko'rganimizda, O'XOI materiallarini lingvistik yo'nalishda o'rganish masalalari etarli darajada amalga oshirilgan, deya ayta olmaymiz. Chunki nihoyatda murakkab va ko'p qirrali bo'lgan til birliklarining folklor matnlaridagi lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish muayyan bajarilgan tadqiqotlar bilan chegaralanmaydi.

To'g'ri, tilshunosligimizda ham o'tgan vaqt mobaynida XOI namunalari tilini o'rganish borasida ma'lum darajadagi tadqiqotlar amalga oshirildi.

¹ Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2016– Б.7-8.

Sh.Shoadurahmonov tomonidan «Ravshan», R.Rasulov va S.Tursunovlar tomonidan «Alpomish» dostonlarining, J.Abdullayev va M.Saparniyazovalar tomonidan topishmoqlarning, F.Xaitova va M.Jumaniyozovalar tomonidan ayrim xalq qo'shiqlarining til xususiyatlari, J.Xolmurotova tomonidan Shimoliy Xorazm dostonlari, A.Rahimov tomonidan o'zbek xalq dostonlari geneologik qatlami, Z.Xolmonova tomonidan «Shayboniyxon» dostoni, A.Xalikov tomonidan «Go'ro'g'lining tug'ilishi» dostoni leksikasi, Sh.Mahmadiyev tomonidan xalq dostonlaridagi stilistik formulalarning nomzodlik dissertasiyasi darajasida o'rganilishi, XOI sintaksisining X.Abdurahmonov hamda G.Jumanazarovalar tomonidan doktorlik dissertasiyasi sifatida himoya qilinishi tilshunosligimiz uchun katta ijobiy hodisa sifatida baholanadi¹.

Mazkur ko'rsatilgan tadqiqotlardan A.Rahimovning «O'zbek xalq dostonlari leksikasining qiyosiy-tarixiy tahlili» mavzuidagi nomzodlik tadqiqotining III bobi va Sh.Mahmadiyevning an'anaviy lingvofolkloristik elementlar xususida so'z yuritilgani uchun ulardan foydalanishimiz mumkin². Shu bilan birga G.Jumanazarovanning ham xalq dostonlari lingvopoetikasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlari ham mavzu obyektimizga yaqindir³.

¹ Шаабдурахманов Ш. О художественных средствах языка поэмы "Равшан": Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1949. - 8 с.; Абдурахманов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Т., 1977. -37 с.; Расулов Р. Синтаксические связи между словами в дастане "Алпамыш": Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Т., 1981. -23 с.; Турсунов С. Лексические особенности дастана "Алпамыш": Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Т., 1990. -19 с.; Абдуллаев Ж. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 1994. -20 б.; Хайтова Ф.Б. Никоҳ тўйи кўшиқларининг лисоний талқини: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 1998. - 24 б.; Жуманиёзова М.Х. Хоразм халқ кўшиқлари лексикаси: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 1999. - 24 б.; Раҳимов А.С. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида): Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2002. -27 б.; Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 2005. - 24 б.); Халиқов А. «Гўрўғлининг туғилиши» дostonи тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 2009. -26 б.; Маҳмадиев Ш.С. Ўзбек халқ дostonлари тилида стилистик формулалар. Филол. фан. номз. ...дис. автореф. –Тошкент, 2007. -26 б.; Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). Фил. фан. док. (DSC) дис. авторефер. – Тошкент, 2017. - 76 б.

² Раҳимов А.С. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида): Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2002. –Б. 15-22.

³ Жуманазарова Г. Халқ дostonларидаги ўхшатишнинг лингвопоэтик имкониятлари. – Тошкент, 2011. Шу муаллиф. Халқ дostonларида сажъ ва такрорнинг лингвопоэтик имкониятлари. – Тошкент, 2011.; Шу муаллиф. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). – Тошкент, 2012. - 288 б.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, XOI namunalari tilini o'rganishga bag'ishlangan bu kabi ishlar orasida X.Abdurahmonov, B.To'ychiboyev, M.Yoqubbekovalarning tadqiqot ishlari alohida o'rin tutadi¹.

Keyingi yillarda XOI namunalari, shuningdek, dostonlar tilining lingvistik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida B.To'ychiboyevning kuzatishlari alohida qimmatga ega bo'ldi. Uning «Alpomish» va xalq tili» asari «Alpomish» dostonining lingvostilistik tahliliga bag'ishlangan. Muallif dostonlarga og'zaki adabiy til namunasi, adabiy tilni boyituvchi manba sifatida qaraydi, ularda ijrochilar til xususiyatlarining aks etishini tabiiy bir hol deb hisoblaydi. «Ijrochi shevasi doston tilining xususiyatini belgilashda muhim o'rin egallaydi. Darhaqiqat, qipchoq shevasi o'zining rang-barangligi, ohori to'kilmagan uslubiy imkoniyatlarga ega ekanligi, turli-tuman o'ziga xos jihatlari bilan kishining e'tiborini o'ziga beixtiyor tortadi, kuzatuvchini o'ziga moyil qiladi, rom etadi. Qipchoq shevasining bu xususiyati, shu jihatdan to'lig'icha «Alpomish» dostonining til xususiyatini belgilaydi» degan fikrda bo'lib², tadqiqot davomida ana shu qarashlar dalillab beriladi. Dostonlarni kuylashdagi musiqaviylikni, o'zbeklarning o'ziga xos tarixi va turmush tarzini, udumlari va qadriyatlarini, muomala va muloqot jarayonlarini ot, tuya, qo'y kabi jonivorlar misolidagi an'anaviy obrazlarni, faqatgina XOIga xos bo'lgan o'xshatish, epitet, mubolag'a kabi poetik vositalarni «Alpomish» til materialida ishonarli tahlil qiladi. Shundan so'ng muallif o'z kuzatishlariga yakun yasab, «Alpomish» dostonini umumxalq tili bilan qiyoslab o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularda, avvalo, so'zlash usulida o'xshashlik, umumiylik mavjud. ... so'zlardagi siqqlik talaffuzning yengil bo'lishiga intilishdan kelib chiqadi. Umumxalq tilidagi iboralar asrlar osha sayqallashib boradi. Qisqa iboralar yirik ko'lamli fikrlarni ifodalaydi. Buning ustiga, iboralardagi nishonga bexato urish xususiyati ham umumxalq tilining fazilatidir. Dostonda har bir satrda iboralarning o'rinli qo'llanilishi uning umumxalq tili asosida yaratilganligidadir. ... ushbu iboralarning haqiqiy turkiy

¹Абдурахмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кuzатишлар. – Т., 1971.; Тўйчибоев Б. «Алпомиш» ва халқ тили.- Т:Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. - 160 б.; Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. - Тошкент: Фан, 2005. - 164 б.

² Тўйчибоев Б. «Алпомиш» ва халқ тили.- Т: Ф. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 11.

(o‘zbek) til mahsuli ekanligi e‘tiborga olinsa, uning qimmatini yanada oshadi» tarzidagi mulohazalarni bayon qiladi va «adabiy til hamma vaqt xalq jonli-so‘zlashuv tili va dialektlardan oziqlanib turadi, o‘zining leksik-stilistik imkoniyatini shular hisobiga kengaytirib boradi» degan tezisni ilgari suradi ¹.

B.To‘ychiboyevning ushbu asarida biz tadqiq etishni maqsad qilib qo‘ygan barqaror birikmalarga xalq iboralarining umumiy fonida qaralgan va ta’sirchanlikni oshiruvchi tasviriy vosita sifatida munosabat bildirilgan².

O‘zbek folklori poetikasi va lingvistikasiga oid tadqiqotlar orasida M.Yaqubbekovanning «O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari» nomli doktorlik dissertatsiyasi alohida o‘rin tutadi.

O‘zbek xalq qo‘shiqlarining (O‘XQ) badiiyatini til tasviriy vositalari yordamida yoritib berishni maqsad qilib qo‘ygan tadqiqotchi ishda *lingvofolkloristika* va *lingvopoetika* tushunchalariga munosabat bildiradi, ayrim troplar misolida ularning badiiy-estetik mohiyatini anglashga harakat qiladi va O‘XQning lingvopoetik tahlil tamoyillarini ishlab chiqadi. Tadqiqot yakunida O‘XQning lingvopoetik xususiyatlarini folklorshunoslik fani doirasida o‘rganishning ahamiyati to‘g‘risida ilmiy xulosalar bayon qiladi. Garchi ishda lingvopoetika sohasida o‘zbek tilshunos olimlari ham aytgan fikrlar chetlab o‘tilgan bo‘lsa-da, «O‘XQlarining lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganish folklorshunoslik, adabiyotshunoslik, stilistika, tilshunoslik kabi filologik sohalarining imkoniyatlaridan mushtarak holda foydalanish natijasidagina samarali ravishda amalga oshirilishi mumkin»³ligi, *lingvofolkloristika* folklor asarlarining badiiyatini til materiali asosida tekshirishi haqidagi fikrlari nazariy jihatdan to‘g‘ri ekanligini ta’kidlaymiz. O‘XQlarining poetik xususiyatlarini va lingvistik tarkibini belgilaydigan shart-sharoitlardan kelib chiqib, qo‘shiqlarga ham badiiy nutq birligi sifatida qarash, tahlilni matn doirasida olib borib, uni yaxlit tizim va axborot vositasi deb tushunish, qo‘shiqlarga xos bo‘lgan modellar tavsiya etish kabi

¹ Юкоридаги асар. – Б. 157-158.

² Юкоридаги асар. – Б. 101-105.

³ Якубекова М.М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ...дис. автореф. - Тошкент, 2005. – Б. 17.

lingvopoetik tamoyillar O‘XOPIning boshqa janrlariga, xususan, epik janrlarga ham, ularning o‘z xususiyatlarini inobatga olgan holda, tatbiq etilishi mumkin.

Tadqiqotning nazariy xulosalari ma’lum ma’noda bizning ishimizga ham daxldor bo‘lganligi uchun malakaviy bitiruv ishining keyingi boblarida ularga tayanib ish ko‘ramiz.

Aytish kerakki, o‘tgan vaqt mobaynida xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, xalq qo‘shiqlari, topishmoqlari, maqollari va dostonlarining til xususiyatlarini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. Natijada o‘zbek linvofolkloristikasi Jumanazar Abdullaev, Zulxumor Xolmonova, Ikrom Xudoynazarov, Farida Hayitova, Muhabbat Jumaniyozova, Jamila Xolmurotova, Ahmad Rahimov, Bibish Jo‘raeva, Muhabbat Yoqubbekova, Muyassar Saparniyozova, Dilbar O‘rinboeva, Shavkat Mahmadiyev, Guljahon Jumanazarova, Abduvahabjon Xaliqov singari tadqiqotchilar safiga kengaydi. Eng muhimi, ushbu mualliflarning tadqiqotlari keng jamoatchilikka e’lon qilindi¹.

Bu tadqiqotlarda o‘zbek xalq dostonlari tilini lingvopoetik, lingvostatistik, leksikografik va leksik-semantik usullarda tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratildi.

Keyingi yillarda Guljahon Jumanazarovanning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlari tilining lingvopoetikasi (leksik-semantik, lingvostilistik va lingvostatistik tahlil) tadqiqiga bag‘ishlangan monografiyasi shu sohadagi eng

¹Абдуллаев Ж. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 1994. -20 б.; Холмонова З. «Шайбонийхон» дostonи лексикаси (Пўлкан шоир варианты асосида): Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1998. - 25 б.; И.И.Худойназаров Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари (Эргаш Жуманбулбул дostonлари асосида).Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1998. - 26 б.;Хаитова Ф.Б. Никох тўйи кўшиқларининг лисоний талқини: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 1998. -24 б.; Жуманиёзова М.Х. Хоразм халқ кўшиқлари лексикаси: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 1999. -24 б.; Холмуротова Ж. Шимолий Хоразм дostonлари лексикасининг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дис. автореф.– Тошкент, 2000. – 27 б.; Раҳимов А.С. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида): Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2002. -27 б.; Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2002. -24 б.; Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 2005. -24 б.);Маҳмадиев Ш.С. Ўзбек халқ дostonлари тилида стилистик формулалар. Филол. фан. номз. ...дис. автореф. –Тошкент, 2007. -26 б.; Жуманазарова Г.У. «Ширин билан Шакар» дostonининг луғавий ва лингвоэтик хусусиятлари (Фозил Йўлдош ўғли варианты асосида):Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 2008. -26 б.;; Yo‘ldoshyev B., O‘rinboyeva D. O‘zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug‘ati. - Toskent, 2008. -100 б.;;Халиқов А. «Гўрўғлининг туғилиши» дostonи тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 2009. - 26 б.;Жуманазарова Г.Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). – Тошкент, 2012. -288 б.

yirik ishlardan biridir¹. Bu monografik tadqiqotda Fozil shoir ijodiga mansub 9 dostonning tematikasi, geneologik qatlamlari, lingvostatistik tahlili va lingvopoetik xususiyatlari yoritilgan. Masalan, Fozil shoir narsa-hodisalar belgisi sifatida “qizil”dan ko‘ra “qirmizi” so‘zini afzal ko‘radi. Bunda ma’lum asos bor. O‘zaro sinonim bo‘lgan bu elementlarning ikkinchisida badiiylik ottenkasi kuchli. Masalan, Kiygani gulgun qirmizi bor, Aqlim olgan shirin so‘zi. Bunda matnda ham tejamlilik, ham obrazlilik bir paytning o‘zida yuz beradi va ijodkor mahorati mana shu tarzda namoyon bo‘ladi.

Shu o‘rinda aytish kerakki, dostonlar matni poetikasining lingvopoetik imkoniyatlarini tahlil qilishda, milliy mentalga xos xususiyatlar ham hisobga olinishi zarur. Masalan, “Alpomish” dostonida Oybarchin tushi tasviri bilan bog‘liq parchani olib ko‘raylik:

Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘lganda,
Jon jasaddan bir beqaror bo‘lganda,
Ziyon etib rahmat toshar bo‘lganda,
Rahmat daryo ayni toshib kelganda,
Tush ko‘ribman ayni sahar bo‘lganda.

Bu tasvidagi biror so‘zni almashtirib bo‘lmaydi. Chunki unda shunchaki so‘z ishlatilgani yo‘q. Unda xalq donoligi, xalqona so‘zning estetik imkoniyatlari to‘la namoyon bo‘lgan. Saharga yaqin “Jon jasaddan bir beqaror” bo‘lishi shunchaki tashbih, ifoda emas, haq gap. Sahar tozalik. Jon toza. U Alloh nafasidan yaralgan. Shu bois mabdaga qo‘shilgisi, qo‘lansa nafs bo‘lmish jasaddan yiroq ketgisi keladi. Shayton tongda yotadi. U kun bo‘yi uyg‘oq odamni chalg‘itish, yo‘ldan urish bilan halak. Tunda esa tinimsiz ishlaydi. Tong uning uchun eng og‘ir payt. Chunki tongda iymon bosh ko‘taradi. Allohga salovatlar bois “Ziyon yotib, rahmat toshar bo‘ladi”. Bu o‘rinda masalaning ikkinchi tomonini ham hisobga olish zarur. ya’ni ba’zi baxshilar ijodida tasavvuf falsafasi ham g‘oyat yuqori bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

¹Жуманазарова Г.Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвopoэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). – Тошкент, 2012. -288 б.

Umuman, G.Jumanazarovanning mazkur tadqiqoti kelajakda dostonchilik maktablari va uning ijrochilari asarlarini shu tarzda o'rganish va tadqiq etish uchun namuna bo'lib xizmat qila oladi.

Istiqlol yillari o'zbek xalq dostonlarining izohli, chastotali, dialektlari xususiyatlarini ko'rsatuvchi lug'atlar yaratilayotganini ham alohida ta'kidlash lozim. Bunda, T.Mirzaev, J.Eshonqul, S.Fidokor, B.O'rinboev, B.To'ychiboev, B.Yo'ldoshev, A.Turobov, D.O'rinboeva, K.Bozorboev, U.Umurzoqov, G.Jumanazarova va boshqalarning tadqiqotlari ahamiyatlidir¹. Bu lug'atlarda ma'lum bir ijodkor repertuariga mansub yoki doston variantlariga mansub til birliklari, ya'ni, adabiy tilimizda kam uchraydigan yoki uchramaydigan, tushunilishi qiyin, ma'nosi unutilgan so'z va so'z birikmalari, frazeologik birliklarning izohi berilgan. Masalan, T.Mirzaev, J.Eshonqul, Selami Fidokorlar «Alpomish» dostonining Fozil shoir, Ergash Jumanbulbul va Po'ltan shoir hamda Saidmurod Panoh o'g'li variantlari asosida izohli lug'atini tuzdilar. Masalan, doston matnidagi «aziz» so'zi «Alpomish» va boshqa dostonlarimizda ikki ma'noda keladi. Birinchisi – *ulug'*, *buyuk* ma'nosida: Achchiq qamchi urma aziz boshima.

Ikkinchisi – *xor*, *vayron*, *qarovsiz* ma'nosida: Tog'lar aziz bo'lar qori bo'lmasa.

Shu bilan birga, D.O'rinboeva va U.Umrzoqovlar «Alpomish», «Ravshan», «Rustamxon» kabi dostonlar matnidagi lug'aviy birliklarning alfavit-chastotali va chastotali lug'atlarini yaratishdi.² Ushbu matnlar asosida kompyuter ko'magida 28499 marta qo'llangan so'zshakllardan 19274 ta lug'aviy birlik ishtirok etganligi

¹Ўринбоев Б., Бозорбоев К. «Алпомиш» достони фразеологизмларининг таъбири.- Самарқанд: СамДУ, 1998. - 42 б.; Тўйчибоев Б. «Алпомиш» ва халқ тили.- Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. - 160 б.; Мирзаев Т., Эшонкул Ж., Фидокор С. «Алпомиш» достонининг изоҳли луғати. – Тошкент: «Elmis – Press-media» нашриёти, 2007. -162 б.; O'rinboeva D.B., Umurzoqov U. O'zbek xalq dostonlari tilining alfavit-chastotali lug'ati. –Toskent: “O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 394 b.; O'rinboeva D.B. O'zbek xalq dostonlari tilining chastotali lug'ati. –Toskent: “O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 243 b.; Turobov A. “Alpomish” dostonidagi shevaga xos so'zlarning izohli lug'ati.- Samarqand: SamDCHTI, 2006. - 52 b. Yo'ldoshev B., O'rinboeva D. O'zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug'ati. - Toskent, 2008.;Жуманазарова Г. Ўзбек халқ дostonлари матнининг лингвостатистик таҳлили. – Тошкент, 2011.

²Ўринбоева Д.Б., Умурзоқов У. Ўзбек халқ дostonлари тилининг алфавитли-частотали луғати. – ЎЗМЭ нашриёти, 2006. -395 б.;Ўринбоева Д.Б. Ўзбек халқ дostonлари тилининг частотали луғати. – ЎЗМЭ нашриёти, 2006. -243 б.

aniqlangan. Lugʻat maʼlumotiga koʻra, “Alpomish” 14029, “Ravshan” 7059, “Rustamxon” 7411 soʻzshakldan iborat. Yaratilgan lugʻat ijodkorning tili toʻgʻrisida aniq maʼlumotlar bera olishi bilan xarakterlidir. Muallif keyinchalik ana shu maʼlumotlar asosida yuqoridagi dostonlar tilining lingvostatistik tahlilini amalga oshirdi va oʻz monografiyasini yaratdi¹.

Bu lugʻatlar, shubhasiz, kelajakda oʻzbek xalq dostonlarining izohli, dialektal, frazeologik, kasb-hunar leksikasini oʻzida aks ettirgan leksikografik tadqiqotlarning yuzaga kelishiga ham zamin boʻlib xizmat qiladi.

Koʻrinadiki, mustaqillik yillarida xalq ogʻzaki ijodi namunalarini, xususan, oʻzbek xalq dostonlarining lingvistik xususiyatlarini oʻrganishga boʻlgan eʼtibor yanada ortdi. Bu esa tilshunosligimizda yangi bir soha, yaʼni oʻzbek lingvofolkloristikasining taraqqiyotiga ham sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda.²

Yuqorida folklor asarlari tilining oʻzbek tilshunosligida oʻrganilish ahvoli xususida tasavvur hosil qilish maqsadida yuzaga kelgan asosiy tadqiqotlarga qisqacha boʻlsa-da munosabat bildirildi. Ular asosida quyidagi mulohazalarni oʻrtaga tashlash mumkin boʻladi:

1. XOI materiallari tilini oʻrganish doirasi mavjud materiallarga nisbatan tor va olib borilayotgan kuzatishlar turli xarakterda.

2. XOI materiallari tilining janr va har bir janrga daxldor asarlar misolida oʻrganilishi talab darajasida emas.

3. Bir mavzu yoki nomdagi asarlar tili qiyosiy tahlil etilgan asarlar koʻzga tashlanmaydi.

4. Xalq dostonlarini kuylovchilarning individual uslubini aniqlashni koʻzda tutadigan lingvistik tadqiqotlar soni koʻp emas.

Ushbu sanab oʻtilgan masalalarning oʻziyoq XOI merosini lingvistik jihatdan tahlil etishdagi muammolar koʻlami haqida tasavvur bera oladi. Ularni

¹Ўринбоева Д.Б. Ўзбек халқ дostonлари тилининг лингвостатистик таҳлили. Монография. – Самарқанд: СамДУ, 2009. - 136 б.

² Бу ҳақда қаранг: Маҳмадиев Ш. Истиқлол йилларида ўзбек халқ дostonларининг лингвистик тадқиқи // Профессор Карим Назаров хотирасига бағишланган «Ўзбек тилшунослиги: тараққиёти ва истиқболлари» мавзусидаги Республика Илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: “Moʻmtoz soʻz”, 2016. Б. 237-239.

amalga oshirmasdan turib og‘zaki milliy badiiy merosimiz, tilimizning boy badiiy-estetik imkoniyatlari haqida to‘laonli tasavvurga ega bo‘lish qiyin.

X.Doniyorovning «...o‘zbek adabiy tilining shakllanish va rivojlanish prosessi, va xususan takomillashuvi hali to‘la tugallanganicha yo‘q. Jonli xalq tilining, sheva va dialektlarning imkoniyatlari cheksiz, buyukdir. Foydalanilmayotgan potensial imkoniyatlar juda ko‘p, o‘zbek adabiy tilini boyitishda ulardan hali to‘la foydalanilganicha yo‘q. Bunday xalq epik asarlari tilida va dialektlarda mavjud bo‘lgan cheksiz boy imkoniyatlarni o‘rganish, o‘zbek tili tarixini o‘rganish, biz yuqorida qayd qilganimizdek, tilda yuz bergan integrasiya va differensiasiya protsesslarini yoritish, o‘zbek yozma adabiy tilining shakllanish va rivojlanish tarixini o‘rganish, uning qoida va qonunlarini takomillashtirish, uning lug‘at fondi, grammatik qonuniyatlari va stilistik xususiyatlari imkoniyatlarini yanada takomillashtirish til taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi»¹, - deganlari ham yuqoridagi fikrlarning to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

XOI namunalari bundan keyin ham ajdodlarimizning ma’naviy-badiiy mulki sifatida saqlanib qoladi va xalqimizning ma’rifiy-madaniy hamda estetik kamolotida asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilaveradi. Birinchi Prezidentimiz «Alpomish» dostonining 1000 yilligi munosabati bilan Termiz shahrida o‘tkazilgan xalqaro anjumanda quyidagilarni bejiz aytmagan edilar: «Alpomish» – o‘zbekning o‘zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan avlodlarga o‘tkazib kelayotgan qahramonlik qo‘shig‘idir.

«Xalqimiz azaldan o‘z vujudi, o‘z tomirida mavjud ilohiy qudratga munosib bo‘lmoqqa intilib yashadi. O‘z o‘g‘lonlarini mardlik va halollik, jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl pahlavonlar etib tarbiyalab keldi.

«Alpomish» dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘stu

¹ Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. - Тошкент: Фан, 1979. – Б.143.

yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi»¹.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan so'zlangan yuqoridagi nutq mamlakatimizda xalq og'zaki ijodini yanada chuqur o'rganishga muhim turtki bo'lganligi barchamizga ayon. Shu sababdan XOI materiallarini til va uslub jihatdan ma'lum izchillikda hamda keng qamrovda tadqiq etish masalasi dolzarbligicha qolaveradi. Shu ma'noda mazkur malakaviy bitiruv ishida barqaror birikmalarning «Alpomish» dostonining ma'lum bir variantlari asosida tadbiiq etish orqali mavzuning o'rganilmagan jihatlariga oydinlik kiritiladi, degan fikrdamiz.

Shuning uchun ham mazkur tadqiqotni amalga oshirishda folklor asarlari tili va uslubiga xos bo'lgan xususiyatlarning bir qismi an'anaviy poetik birikmalar, ya'ni barqaror birikmalar bo'yicha kuzatishlar olib borib, dostonchilikdagi poetik mahoratning ba'zi bir qirralariga, uslubiy o'ziga xosligiga hamda ona tilimiz materialidan foydalanish uquvi haqida mulohaza yuritib, piravordida undagi an'anaviylik, badiiylik, vazifaviy chegaralanganlik kabi xususiyatlarning voqe bo'lishida lingvistik va ekstralingvistik omillarning o'rni xususida so'z yuritish va bu boradagi o'z qarashlarimizni bayon etish ko'zda tutildi.

¹ Каримов И.А. «Алпомиш» дostonининг 1000 йиллигига бағишланган тантанали маросимда сўзланган нутқ // «Халқ сўзи», 1999 йил 9 ноябрь.

II BOB.

BARQAROR BIRIKMALARNING LINGVOFOLKLORISTIK ATAMALAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI

1.1. Barqaror birikmalarning lingvofolkloristik atamalar tizimida tutgan o'rni.

Barqaror birikmalar shu paytga qadar folklorshunosligimizda ma'lum darajada o'rganilgan. Bunda ayniqsa V.M.Jirmunskiy, H.Zarifov, T.Mirzayev, I.Yormatov, S.Mirzayeva, M.Yoqubbekova, B.Rahmonovlarning tadqiqotlari xarakterlidir.

XOI janrlari, xususan doston, ertak, qo'shiq, maqol, matal, latifa kabilarda turg'unlashgan ma'lum bir til birliklari tayyor material sifatida qo'llanilib, matn tarkibida o'ziga xos turli vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Malakaviy bitiruv ishimizning tadqiqot obyekti sifatida olingan til birliklari, ya'ni an'anaviy barqaror birikmalar xalq og'zaki ijodi poetik materiallarini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda *epik formulalar, stilistik formulalar, an'anaviy uslub elementlari, tayyor poetik ifodalar, barqaror birliklar, barqaror formulalar, o'lik formulalar, poetik formalar, barqaror epik formulalar, doimiy poetik tasvirlar, an'anaviy misralar, tradision misralar, doimiy poetik tasvir vositasi* singari bir qator atamalar bilan nomlanishini kuzatamiz¹.

Bu tasviriylar ifoda vositasi xususida kuzatishlar olib borilayotgan paytda ularning barchasidan bab-baravar foydalanish xilma-xillikni keltirib chiqaradi va bu ilmiy bayon uslubiga ziddir. Atamalarni qo'llashda har xillikka yo'l qo'yish tilning amal qilish qonuniyatlariga zid hodisa sanaladi. Shunday ekan, yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarning barchasini o'zida mujassam etgan eng ma'qul variantni tanlash lozim bo'ladi. Bu birliklarning yuqoridagi barcha xususiyatlarini qamrab olish tavsiya etiluvchi atama oldiga qo'yiladigan asosiy shart bo'lib qoladi. Bunda, avvalambor, ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan folklorshunoslikda faol qo'llanilib kelinayotgan *epik formula* atamasi ko'z oldimizga keladi. Bu atama

Мирзаев Т. «Алпомиш» достонининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.131-137.; Раҳмонов Б. Ўзбек халқ эпик тузилишининг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1989. -№ 3. - Б. 36-39.; Мирзаева С. Барқарор эпик формулалар поэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1999. -№ 6. - Б. 37-41.

O.S.Axmanovanning «Lingvistik terminlar lugʻati»da quyidagicha izohlangan: «Formula turgʻun ibora, uning tuzilish modeli uchun umumiy boʻlgan nom, ibora – klishe va shu kabilar»¹. Shu maʼnoda ularning faqat xalq ogʻzaki ijodining epik janriga tegishli ekanligini *epik* soʻzi, turgʻun ibora va uning modelining umumiy nomi ekanligini *formula* soʻzi oʻz zimmasiga oladi. Lekin shu nom bilan atalayotgan tasviriy vositaning stilistik jihati eʼtibordan chetda qoladi. Bu birikma tahlil obyekti boʻlgan birliklarning mohiyatini oʻzida toʻlaligicha qamrab ololmaydi. *Poetik formalar* va *oʻlik formalar* tushunchalari ham masalaning faqat bir jihatinigina yoritishi mumkin. *Poetik formulalar* esa *epik formulalar* dan kengroq maʼnolarni anglatadi. Shuning uchun ularning birortasi ham, nazarimizda, tasviriy vositaning lingvistik va lingvofolkloristik mohiyatini toʻlaligicha anglatmaydi.

Akad. V.M.Jirmunskiy «Manas» eposini oʻrganishga kirish» asarida epik klishe nazariyasiga oid qarashlarini bayon etar ekan, *stilistik formula* atamasini qoʻllagan: «Albatta, improvizatsiya xarakterini kasb etgan bunday ijodkorlik faqatgina maʼlum va qatʼiy shakllangan anʼanalar – syujet qurilishida, motivlar va obrazlarda, doimiy stilistik formulalarda, epitetlarda, oʻxshatishlarda va frazeologik oborotlardagina amalga oshadi»². V.M.Jirmunskiyning ushbu fikrlarini T.Mirzayev inobatga olib, ana shu atamadan foydalanganligini koʻramiz³. Aytilganlardan kelib chiqib, xalq dostonlari tilida muayyan stilistik va badiiy-estetik vazifalarni bajarishga xizmat qiluvchi epik formulalarga stilistik vosita sifatida qaralgan va unga nisbatan stilistik formula atamasi qoʻllanilgan.

Xalq ogʻzaki ijodi asarlari doirasida anʼanaviy poetik birikmalar atamasi keng maʼnoda qoʻllaniladi. Bu tabiiy hol. Chunki xalq ogʻzaki ijodi janrlari, xususan, dostonlar matnida xilma-xil vazifalarda qoʻllanuvchi anʼanaviy barqaror birikmalar jahon folklorshunosligida epik klishelar deb nomlanib, ular asar uslubining oʻziga xosligini taʼminlashda, kuchli emosional-ekspressiv holatlarni

¹ Axmanova O.C. Словарь лингвистических терминов. - М., 1969. с. 502.

² Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. Избранные труды.- Л.: Наука, 1974. –С. 27.

³ Мирзаев Т. «Алпомиш» дostonining ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 141.

yuzaga keltirishda yetakchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Klishe'larga xoslangan an'anaviy poetik birikmalar improvizatsiya jarayonida muntazam qo'llanilib, barqarorlik va doimiylik kasb etgan. Shuning uchun ular epik asar bayonida hamisha qo'llanishga tayyor holda turadi. Xalq og'zaki ijodi asarlari, xususan, malakaviy bitiruv ishimizda ko'rib chiqayotgan dostonlar matnida ham an'anaviy barqaror birikmalar ana shunday vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Masalan, «Alpomish»ning Fozil Yo'ldosh o'g'li variantida ko'p qo'llaniluvchi:

Davlatidan adras-kimxob kiydirdi,

Kimki g'anim, xonumonin kuydirdi (165,300, 318, 349, 379, 389, 335);

Oblo mening aqli-hushim olibdi,

Shum falak boshima savdo solibdi (33, 35, 305, 318, 354, 372, 385, 390);

Yana bahor bo'lsa ochilar gullar,

Gulni ko'rsa, mast bo'p sayrar bulbullar (28, 30, 31,52, 163, 270, 351);

Olmadayin so'lgan gulday tarzim bor,

Mushtiparman sizga aytar arzim bor (52, 67,75, 90);

G'am bilan sarg'ayib guldayin diydor,

Bir nechalar o'z holidan bexabar (21, 30, 31, 32, 108);

Dardli qul dardimni kimga yoraman,

Ayroliq o'tiga bag'ri poraman (19, 40, 114, 200, 214);

Ot chopsa gumburlar tog'ning darasi,

Botirni ingratar nayza yarasi (31,121, 145,366);

Har gap bo'lsa, taqdirimdan ko'raman,

Mungluqmanda, nima iloj qilaman (55, 81, 131, 132, 171, 241, 244,280)

an'anaviy poetik birikmalar shular jumlasidandir.

Ko'rinadiki, mazkur an'anaviy poetik birikmalar dostonlar matnining asosiy qismini tashkil qilib, turli xil leksik-grammatik shakllarda qo'llanadi, asar matnining izchilligini ta'minlashda, doston syujetidagi voqealarning bog'lanishida asosiy lisoniy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga ular dostonlarning keyingi misralaridagi qofiyalanish tizimini yuzaga keltirishda o'ziga xos yengilliklar tug'diradi, qo'llanish o'rin va vaziyatga qarab ayrim o'zgartirishlar

bilan asar matnida ishlatiladi. Albatta, shu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, mazkur an'anaviy poetik birikmalar (qoliplar)ning qay darajada qo'llanilishi dostonchilik maktablari vakillari va ijodkorlarining mahorati bilan ham bog'liq. Xususan, «Alpomish» dostoni variantlari ichida Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti ana shu jihatlari bilan ajralib turishi ham bejizga emas.

Ma'lum bir muddat oralig'ida 10-sinf o'quvchilari uchun foydalanib kelingan adabiyot darsligida dostonlar matniga barqaror birikmalar quyidagicha izohlangan: «Xalq dostonlarining deyarli hammasida uchraydigan ifodalar, tasvirlar bor. Ular folklorshunoslikda «epik qoliplar» deyiladi. Epik qolip yoki klishelar xalq dostonlarida doimiy ravishda takrorlanib turadigan holatlar tasvirida qo'llaniladi. Jumladan, dostonlarning boshlanishi va tugallanishi, personajlarning ko'rinishlari, ularning bir-birlariga qilgan nasihatlar, tulpor otlarga berilgan ta'riflar, safar yoki jang tasvirida epik qolipdan foydalaniladi. Xalq dostonlarida asardan asarga ko'chib yuradigan, badiiy qolip holiga kelib qolgan she'riy qatorlar, qo'shma misralar yoki folklorshunoslar tili bilan aytganda, uslubiy formulalar ham muhim badiiy ahamiyat kasb etadi». «Yana bahor bo'lsa, ochilar gullar, Gulni ko'rsa mast bo'b sayrar bulbullar», «Qiyg'ir degan qush o'tirar qiyada», «Ot chopsa gumburlar tog'ning darasi, Yigitni ingratar nayza yarasi», «Xazon bo'lmay bog'da gullar so'ldimi, So'lgan gulga bulbul kelib qo'ndimi» singari ko'plab uslubiy formulalar she'riy bandlarning boshi, ba'zan o'rtasida kelib, aytuvchi baxshining nafas rostlashiga, fikrni to'plab olishiga, quyilib kelayotgan tuyg'ularni ifodalash uchun zarur so'zlarni topib olishga imkon yaratadi ¹.

1.2. Barqaror birikmalarning xalq og'zaki ijodi janrlari tizimida tutgan o'rni.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, an'anaviy poetik barqaror birikmalar xalq og'zaki ijodi asarlarining boshqa janrlarida ham qo'llanilib, ular har bir janrning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ishlatiladi. Epik turning doston, ertak, latifa, rivoyat, afsona kabi janrlarining barchasida an'anaviy poetik birikmalar (epik klishelar) mavjud va ular boshqa til birliklaridan farqlash maqsadida *epik*

¹ Qosimov B., To'xliyev B., Yo'ldoshev Q. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. –B. 29.

klishelar deb yuritiladi. Ammo ular uchun tanlab olingan obrazlar, faktlar va dalillar, ularning joylashish o'рни va grammatik strukturasi bir-biriga mos kelmaydi, bir janr doirasidagi klishelar ikkinchi janrda takrorlanmaydi. Ertak matniga xos bo'lgan «*Bor ekan-da, yo'q ekan, och ekan-da, to'q ekan. Bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan...*» tarzidagi klishelar boshqa janrlarda uchramaydi. Yoki askiya janridagi «*o'xshatdim*», «*bo'lasizmi*», «*gulmisiz, rayhonmisiz*» singari klishelarni afsona va latifa janrida qo'llab bo'lmaydi. Ular nafaqat har bir janr doirasidagi kichik–kichik syujetlarni mustahkam tutib turuvchi ustun vazifasini o'taydi, balki og'zaki bayon jarayonida qat'iy izchillik va yo'nalishni saqlab turadi. Xuddi shu vazifadagi epik klishelar dostonlar matni uchun ham xos.

Klishelarga xoslangan an'anaviy barqaror birikmalar xalq og'zaki ijodining lirik janrlari, xususan, qo'shiqlar matni uchun ham xos: ***Hay-hay o'lan, hoy o'lan, o'lanchi qiz, yor-yor, Va'dasida turmagan yolg'onchi qiz, yor-yor.*** Yoki: ***Hay-hay o'lan, hoy o'lan, armonli qiz, yor-yor, Onalari ko'ngliga darmonli qiz, yor-yor*** kabi parchalardagi qaytariqlar turli motivdagi qo'shiqlarga tegishli. Garchi asosiy ma'no ikkinchi misrada bo'lsa ham, bandlardagi birinchi misralarni olib tashlab bo'lmaydi. Ular nafaqat bandning, balki to'rtlikning tarkibiy qismiga aylangan va muayyan uslubiy vazifani ado etmoqda. Shu nuqtayi nazardan ularni an'anaviy poetik birikmalar qatoriga kiritish mumkin, deb hisoblaymiz.

Yana bir misol: *O'roq o'rmoq olmoq-solmoq, Qo'sh haydamoq bormoq-kelmoq. Hammasidan qiyin ekan, Ey ho'kizim, ro'zg'or qurmoq.* Birinchi band o'zbek xalqi orasida naql tarzida allaqachon barqarorlashgan. Uning to'rtlik tarkibida keltirilishi ma'lum semantik-uslubiy maqsad bilan bog'liq. Uni olib tashlagan bilan parchadagi asosiy fikr ifodalanmasdan qolmaydi. Ammo ular ishtirok etayotganichalik poetik mukammallik ham, ma'noviy to'laqonlik ham yuzaga kelmaydi.

Mana bu *Tovlarda bor quv olma, turey-turey, Sovun bilan suv olma, turey-turey, Bolaginang yo'qligin, turey-turey, Jonvor, ko'nglingga olma, turey-turey* to'rtligidagi birinchi bandni dostonlar matnidagi *Qiyg'ir degan qush o'ltirar*

qiyoda, *G'ayratidan mardlar yurar piyoda* kabi misralar bilan vazifasi jihatdan aynan bir xil barqaror birikmalar sifatida qarasa bo'ladi. *Tuynukda bir oy ko'rdim, Bir oq qashqa toy ko'rdim. O'n besh yashar chog'imda, Sakson yashar chol ko'rdim* yoki: *Ot boyladim xariga, Xaridan ham nariga. Otam meni sotdilar O'zlaridan nariga* to'rtliklaridagi birinchi bandlar ham yuqoridagi aytilgan fikrlarni to'ldirishga xizmat qiladi.

I.Yormatov «Alpomish» dostoni poetikasining ba'zi masalalari» nomli maqolasida dunyo xalqlari folklorida uchraydigan xalqaro klishelar haqida so'z yuritib, farzandsiz shoh, qahramonning g'ayri tabiiy tug'ilishi va uning homiy kuchlar tomonidan o'tda yonmas, suvda cho'kmas, qilichda chopilmas, o'qqa o'lmas alpga aylantirilishi, Alpomishning zindonband bo'lishi kabi klishelarning dostonidagi ayrim motivlarning shakllanishiga asos bo'lganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, maqola muallifi qahramonning safarga o'tlanishi motivini tashkil etuvchi qahramonga nasihat, ot tanlash, ot ta'rifi, otni egarlash, qahramonga oq yo'l tilash, qarindoshlar bilan xayrlashuv, otda jo'nab ketish hamda do'q-po'pisa klishelarini poetik talab nuqtayi nazaridan tahlil qiladi¹.

Folklorshunos S.Mirzayeva ham barqaror epik formulalar haqida mulohaza bildirib, shunday deydilar: «Xalq eposida saqlangan xotiraning mohiyatini chuqur va to'g'ri anglashda barqaror epik formulalar tabiatini, ularning an'anaviylik darajasini, har bir formulaning doston matnida bajargan badiiy axborot berish vazifalarini aniqlab olish katta ahamiyatga ega².

S.Mirzayeva an'anaviy poetik birikmalarning dostonlar matniga xos bo'lgan tasviriy vositalar tizimidagi o'rni haqida ham mulohaza yuritadi. Ularning dostonidagi muayyan syujet bilan bog'liq emasligini, ijro paytida o'ziga xos boshqariluvchi badiiy kanon va qoliplaridan iborat ekanligini aniqlaydi.

Ko'rinadiki, folklorshunoslar an'anaviy poetik birikmalarga faqatgina poetik vosita sifatida qarashgan, ularning lingvistik jihatlarini tahlil etishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishmagan.

¹ Ёрматов И. «Алпомиш» дostonи поэтикасининг баъзи масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1990. - № 5. – Б. 33-38.

² Мирзаева С. Барқарор эпик формулалар поэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1999. -№ 6. - Б.37-41.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘zbek tilshunosligida xalq og‘zaki ijodi asarlari tilini o‘rganish borasida ham muayyan ishlar amalga oshirilgan. Tadqiqot obyektimiz bo‘lgan «Alpomish» dostoni, xususan uning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘liga mansub variantining badiiy tili, boy leksikasi, frazeologiyasi, uslubiy xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha katta ko‘lamdagi ishlar amalga oshirildi, muayyan natijalarga erishildi va bunday tadqiqotlar bugunda ham davom ettirilmoqda. Jumladan, B.O‘rinboyev, T.Mirzayev, J.Eshonqul, S.Fidokor, B.Yo‘ldoshev, D.O‘rinboyeva, K.Bozorboyev, U.Umurzoqov, A.Turobovlar tomonidan mazkur asarning frazeologik lug‘ati, izohli lug‘ati, chastotali, alfavitli-chastotatali, chastotali izohli frazeologik lug‘atining tuzilganligi va nashr etilganligi, qolaversa, B.To‘ychiboyev tomonidan «Alpomish» dostonining lingvostilistik xususiyatlarining monografik planda o‘rganilganligi nafaqat tilshunosligimiz, balki folklorshunoslik, umuman, filologiya ilmining rivojlanishida katta hissa bo‘lib qo‘shilishi shubhasizdir¹.

Bevosita amalga oshirilgan ishlarga tayangan holda dostonlar matni uchun xos bo‘lgan barqaror birikmalarning mavjud bir turkumdagi variantlarda qo‘llanilishi, bunda ijodkorlarning an’anaviylik va individuallikdan foydalanish mahorati, shuningdek, bu birliklarning asar matnidagi lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etish nihoyatda muhimdir. Shuning uchun biz malakaviy bitiruv ishimizning uchinchi bobida masalaning ana shu jihatlarini yoritishni o‘z oldimizga maqsad qilganmiz.

Umuman, bob bo‘yicha olib borilgan kuzatishlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Lingvofolkloristika doirasida qaraladigan klishe nazariyasi tizimiga kiruvchi barqaror birikmalar klishe'larga xos bo‘lgan an’anaviylik, barqarorlik, ixchamlik, ta’sirchanlik, obrazlilik kabi xususiyatlarga ega.

¹ Ўринбоев Б., Бозорбоев К. «Алпомиш» дostonи фразеологизмларини таъбири.- Самарқанд: СамДУ, 1998. - 42 б.; Тўйчибоев Б. «Алпомиш» ва халқ тили.- Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. - 160 б.; Мирзаев Т., Эшонқул Ж., Фидокор С. «Алпомиш» дostonининг изохли луғати. – Тошкент: «Elmis – Press-media» нашриёти, 2007. -162 б.; О‘ринбойева Д.Б., Умурзоқов У. О‘zbek xalq dostonlari tilining alfavit-chastotali lug‘ati. –Toskent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 394 b.; О‘ринбойева Д.Б. О‘zbek xalq dostonlari tilining chastotali lug‘ati. –Toskent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 243 b.; Turobov A. “Alpomish” dostonidagi shevaga xos so‘zlarning izohli lug‘ati.- Samarqand: SamDCHTI, 2006. - 52 b.

2. An'anaviy poetik birikmali barqaror til birliklari nafaqat dostonlar matni, balki xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari, xususan qo'shiqlar, ertaklar, askiyalar uchun ham xosdir.

3. Kuzatishlardan ko'rinadiki, barqaror birikmalarning o'rganilishi ko'proq folkloristik nuqtayi nazardan amalga oshirilgan.

III BOB.

«ALPOMISH» DOSTONI VARIANTLARIDAGI BARQAROR BIRIKMALARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Keyingi paytlarda o'zbek filolog tadqiqotchilari folklor asarlari lingvopoetikasi bilan shug'ullana boshlagani, o'zbek filologiyasi ilmiga *lingvofolkloristika* atamasining dadil kirib kelayotgani quvonarli holdir. Ana shunday yirik kuzatishlardan biri M.Yaqubbekovanning «O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari» nomli doktorlik dissertasiyasi bo'lib, unda xalq og'zaki ijodi poetikasining nazariy masalalari bilan birgalikda, qo'shiqlardagi o'xshatish, metafora va epitetlarning poetik tabiati til aspektida tadqiq etilgani diqqatga sazovordir. U «Xalq qo'shiqlaridagi ommaboplik, jaranglilik, ohangdorlik, soddalik bag'ridagi chuqur ramziylik, ta'sirchan ekspressivlikni hosil qiluvchi o'ziga xos tasviriy vositalar tizimini yaxlit va ichki o'zaro mutanosib munosabatda o'rganishga *lingvopoetik tahlil jarayonida erishish mumkin*» deb hisoblaydi¹. Ushbu fikrlar xalq og'zaki ijodidagi boshqa janrlar, xususan dostonlar poetikasiga ham taalluqlidir. Dostonlar janrining tarkibiy qismi sanaladigan an'anaviy poetik birikmalarga xoslangan barqaror birikmalar (bundan keyin - BB) ana shu tasviriy vositalar tizimida qaraladi.

BBlarni faqatgina dostonlar tilini bezovchi vosita sifatida qarash ularning matndagi lingvopoetik ahamiyatini pasaytirish bo'lar edi. Tahlil jarayonida shunday tasavvur paydo bo'ladiki, BBlar nafaqat doston syujetini, balki ritmni ham bir maromda ushlab turuvchi vositadir. Agar obrazli qilib aytish mumkin bo'lsa, dostonni kuylovchi chavandoz, doston matni ot bo'lsa, BBlar suvoriy qo'lidagi jilovdir. Baxshi kuylash jarayonida jo'shib ketadi, folklorshunoslar tili bilan aytganda, «qaynaydi». Tabiiyki, ana shunday lahzalarda u asosiy mazmun bayonidan biroz chetlashib ketishi mumkin. Jilovni tortish yoki uni bir tomonga burish bilan bayon jarayoni yana o'z o'zaniga tushirib yuboriladi. Ular qo'shimcha stilistik vosita sifatida dostonchiga ilhom va kuch-quvvat beradi, misralarning quyilib kelishiga, fikrlarning to'ldirilib borishiga, bir-biriga ulanib ketishiga

¹ Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. - Тошкент: Фан, 2005. – Б. 6-7.

ko'maklashadi, ijodkorga butun dostonni kuylash davomida fikrlar jilovini qo'lda ushlab turishga yordamlashadi, ruhlantirib turadi. Shu yo'l bilan dostonning tarkibiy qismiga aylanib, uning vujudiga singib ketadi.

Shuning uchun ham BBlarning qo'llanilishi dostonlar poetikasi bilan bog'liq hodisa sanaladi va ijro jarayonida muayyan badiiy-estetik vazifani ado etadi.

XOI sarchashmalaridan oziqlanib shakllanadigan, shu bilan birga, faqat dostonlar uslubigagina xos bo'lgan BBlarning qo'llanilishi, avvalambor, poetik hodisa sifatida talqin etilishi lozim. Ular tufayli, bir tomondan, dostonchilikdagi, doston kuylashdagi an'anaviylik, ikkinchi tomondan, improvizatsiya jarayonidagi bayon usuliga xos bo'lgan ijodiy ruh saqlanib qoladi, uchinchi esa, har bir doston ijrochisining mahoratini namoyish etishga ko'maklashuvchi vositaga aylanadi. Shuning uchun ham mazkur bobda tahlilni barqaror birikmalarning doston matni, asosan ularni o'z ichiga olgan mikromatn bilan uyg'unlik darajasini o'rganishdan boshlash maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

BBlarni turli yo'nalishlarda tahlil etish jarayonida ularni alohida olib tekshirish muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi va bunday paytlarda ushbu tasviriy vosita qatnashayotgan kichik matniy qurshovga tayanib ish ko'rish ma'qul ko'rinadi. Shuning uchun tadqiqot mazmunini bayon etish jarayonida BB deganda dostonlar matnida shaklan turg'unlashgan, me'yorlashgan va ommalashgan alohida so'z birikmalari va gaplarni anglaymiz.

Biz quyida «Alpomish» dostoni matnidagi an'anaviy poetik birikmalarga xoslangan barqaror birikmalarga xos an'anaviylik hamda ularda uchraydigan ba'zi badiiy tasvir vositalari, jumladan, o'xshatish, epitet, takrorlarning qo'llanishi haqida fikr yuritmoqchimiz.

3.1. Barqaror birikmalarning struktural vazn xususiyatlari.

BBlarga ikki yo'nalishda, birinchidan, dostonlar matnining ajralmas, tarkibiy qismi sifatida qarash, ikkinchidan, matn mazmunidan ajratib turadigan o'ziga xosliklarni farqlash nuqtayi nazaridan munosabat talab etiladi.

Ma'lumki, doston kompozitsiyasi ham nasriy, ham nazmiy parchalardan iborat bo'lib, ular bayon usuliga ko'ra bir-birlaridan farq qiladi. BBlar ularning har

ikkalasi tarkibida uchrashi ham mumkin.: *Beli bukrayib, qulog' i tikrayib* (A-41), *dimog' i chog' bo' lib, ko' ngli tog' bo' lib, o' zi kalondimog' bo' lib* (A-60)... Ammo BBlarni poetik elementlar sifatida dostonlarning nazmiy qismiga daxldor, deb baholashga odatlanilganki, biz ham ushbu an'anaga sodiq qolamiz.

BBlarni dostonlarning tarkibiy qismi sifatida qaralishiga yana bir asos ularning epik asar nazmiy qismidagi barcha poetik talablarga rioya qilingan holda shakllantirilganligidadir. «Dostonlardagi she'rlar, asosan, 7,8 va 11 hijoli barmoq vaznida bo' lib, turoqlarning o'zgarib turishi, band tuzilishi va qofiyalanish sistemasiga ko'ra, o'ziga xos xususiyatga ega»¹. BBlarda ham ushbu tartib saqlanadi:

1) 11 bo'g'inli BBlar ($6+5=11$): Davlatidan adras-kimxob kiydirdi, / *Kimki g'anim, xonumonin kuydirdi* (A-165) yoki $4+4+4$ ko'rinishi: *Do'mbiramning alvon-alvon go'yi bor, Qayda borsa davlatmandning siyi bor* (A-SP- 6)².

2) 8 bo'g'inli SFlar. Ularda ham turoqlar bir xil tartibda emas. Masalan, $3+5=8$ tarzida: Bahorda ochilgan gullar / *Gulga mast bo'lgan bulbullar* (A-382); $5+3=8$ tarzida: *Gulday ochilib so'ldimi / Yo paymonasi to'ldimi, / Ajali yetib o'ldimi, / Bir yoqda ovda bo'ldimi* (A-385); $4+4=8$ tarzida: *Oshiq fahmi oqshom kecha, / Holin bilmaydi bir necha, / Yig'ilishgan satta norcha, / Ko'pkarini chopib yotir* (A-337).

Ammo doimo ham turoqlarning qo'llanilishida qat'iy tartibga rioya qilinmaydi. Bir bandning o'zida ham xilma-xillik yuz berib qolishi mumkin. Masalan, $4+4=8$ va $5+3=8$ shaklida: *Tar ochilgan toza guli / Ul ham chamanning bulbuli* (A-382).

3) 7 bo'g'inli SFlar. Ularda turoqlar quyidagi ko'rinishda: $4+3=7$: *Qorli tog'lar gazasi, / Sochma miltiq dazasi, / Hyeyla, kelayotirlar / Suluvlarning tozasi* (A-XM-30).

Dostonlar poetikasi bilan bog'liq bo'lgan hijolardagi bu o'zgarishlarni B.Rahmonov quyidagicha izohlaydi: «Qahramonlarning otda safari, jang

¹ Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоков Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Тошкент: Ўқитувчи, 1990. –Б. 265.

²

manzarasi, qizlarning sayribog‘ yurishlari, xabar va chaqiriqlar, bazm va o‘tirishlar tasviri qisqa she’rlarda beriladi. Uzun vaznli she’rlar harakatning tinch, ohistaligini bildiradi. ...Epik xalq she’rining yana bir muhim belgisi uning musiqa jo‘rligida ijro etilishiga mo‘ljallanganligidadir»¹.

Misralardagi bo‘g‘inlar va turoqlar sonining turlichaligini ikki sababga asoslanib izohlash mumkin. Birinchidan, an’anaga rioya qilish. An’anada epik asarlar bayonida 11 bo‘g‘inli misralar ustunlik qiladi. Ikkinchidan, dostonni kuylovchi baxshining bayondagi uslubi ta’sir qilishi mumkin. Masalan, «Alpomish» dostonining Fozil Yo‘ldosh hamda Saidmurod Panoh o‘g‘li kuylagan variantlarida 11 bo‘g‘inli misralar ustunlik qilsa, Xushboq Mardonaqul o‘g‘lida 8 va 7 bo‘g‘inli misralarda berishga moyillik kuchli.

3.2. Barqaror birikmalarga an’anaviylik va ijodiy-individual munosabat.

Dostonlarni kuylashda mualliflarning individualligi qanchalik sezilib turmasin, ular an’anaviylikdan uzoqlashib keta olmaydi. Epik asarlardagi she’riy misralarning qat’iy 11, 8, 7 bo‘g‘inda shakllanishi ham ana shu an’anaviylikka rioya qilishning natijasidir.

An’anaviylikning XOI materiali uchun naqadar muhim ekanligini BBlarning asardan asarga, dostondan dostonga, zamondan zamonga ko‘chib yurishi ham isbotlaydi. Ular bir asar yoki bir necha asar matnida hech bir o‘zgarishsiz keltiriladi. Ular quyidagilar: *Azamatlar olmos boylar dastiga* (A-109,138,270,322), *Savashli kun tortiladi parli yoy* (A-68,74)², *To o‘lguncha so‘ylab qolgan til bo‘lsin* (A-41,76), *O‘zi o‘lmay, kishi yorin berami?* (A-125,162), *Zolim bilan hargiz bo‘lmanglar yo‘ldosh* (A-19,149,234) kabi. Bunday turg‘unlik ayrim bayt shaklidagi BBlarga ham xos. Masalan: *Ushbu damdir, damga damni dam dema, Otasi nokas bilan parcha non yema. Tilaganing Tovka bo‘lsa, Kayqubod, Men tirikda oy Tovkadan g‘am yema* (A-SP-38), *Ushbu damning damlarini dam*

¹ Раҳмонов Б. Ўзбек халқ эпик тузилишининг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти . - Тошкент, 1989. -№ 3. - Б. 36-39.

²Misollardan so‘ng berilgan qavs ichidagi shartli qisqartmalar «A» - Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, «A-XM» - Xushboq Mardonaqul o‘g‘li «A-SP» - Saidmurod Panoh o‘g‘liga mansub «Alpomish» dostoni variantlarini ifodalab, bundan keyin ana shu dostonlar matnidani olingan misollarning shu qisqartma shaklida sahifalari ko‘rsatiladi.

dema, Boshing eson, davlatingni kam dema (A-23, 143) kabi BBlar orasida *Ushbu damdir, damga damni dam dema, Otasi nokas bilan parcha non yema. Tilaganing Tovka bo'lsa, Kayqubod, Men tirikda oy Tovkadan g'am yema* (A-SP-38), *Ot chopsa gumburlar tog'ning darasi* (A-31,121,145,366), *Erisin, tog'larning qori erisin* (A-47,238) kabi ko'rinishlari xalq dostonchilar tilida mashhur bo'lib, ba'zan ayrim o'zgarishlar bilan hozirda ham badiiy ijod namunalarida yashab kelmoqda.

BBlardagi an'anaviylikning ikkinchi qutbida poetik va stilistik talablar hamda muallif individualligi bilan bevosita bog'liq tarzda ayrim o'zgarishlarga uchrab qo'llaniladigan variantlar turadi.

Poetik talabning birinchisi sifatida improvizatsiyani qayd etishni istar edik. «Asar mazmuni bilan u yoki bu darajada bog'langan, ayrim hollarda aforizmlilik xususiyatiga ega bo'lgan bunday misralar bandning boshida, ba'zan o'rtasida kelib, aytuvchining to'xtovsiz improvizatsiya qilishiga imkon beradi, unga quyilib kelayotgan fikr oqimini mohirlik bilan tezroq bayon qilishga yengillik tug'diradi. Banddagi boshqa misralar bilan qofiyada mahkam bog'langan bunday qaytariqlar dostonchining so'z topishiga bir oz fursat yaratib, keyingi misralarni tezlik bilan ijod qilishga sharoit hozirlaydi»¹. Masalan: *Xudo qozi, payg'ambarlar noyibi, Urushda pand berar otning mayibi* BBsi Fozil Yo'ldosh o'g'lida ikki marta ishlatilgan (A-251,318). Mana bu BBlar esa uning o'zgartirilgan shaklidir: *Qozilar oldida shabgir noyibi, Yigitga pand berar otning mayibi* (A-212,312,346). Saidmurod Panoh o'g'li variantida ham uning *Maydonda pand berar otning mayibi, Yo'l so'ramoq yaxshi, yo'qdir ayibi* (A-SP-49) shaklida kelishi dostonlar o'rtasidagi an'anaviylikdan dalolatdir. Improvizatsiya jarayonida ro'y beradigan bu kabi o'zgarishlar nafaqat BBlarda variantlilikning sodir bo'lishiga, balki sintaktik parallellarning vujudga kelishiga ham yo'l ochib beradi. Bu birliklarga nisbatan lingvopoetik tahlil asoschilaridan biri R.Yakobsonning «grammatik

¹ Мирзаев Т. «Алпомиш» дostonининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 44.

oppozitsiyalarning simmetrik joylashishi» atamasini qo'llash maqsadga muvofiqdir¹.

BBlar doirasida shunday parallellar mavjudki, ular poetik usul – antiteza shaklida berilgan: Do'st yig'latib, Dushmanini kuldirar (A-21,22,73,242), Ochilganda toza gulim so'ldirma, Do'sting yig'lab, dushmaningni kuldirma (A-SP-22), Yaxshilik ko'r, yomonlikni ko'rmagin (A-131) kabi. Asosini **do'st-dushman, yaxshi-yomon** antonimlari tashkil qilayotgan ushbu birliklarni ham grammatik, ham semantik juftliklar sifatida qabul qilishimiz mumkin. «Bayonning bunday vositasi yoqimlidir, deydi Aristotel «Ritorika» asarida, - chunki qarama-qarshilik anglash uchun qulaydir, agar ular yonma-yon tursa yana ham tushunarlidir, yana shuning uchun qulayki, bu vosita isbot qilish, ziddiyatlarni qiyoslash bo'lganidan sillogizmga yaqinlashadi»².

BBli qurilmalar tarkibida gaplarning yoki gap bo'laklarining o'zaro stilistik oppozitsiyada bo'lishi va antiteza usulini hosil qilishi bu tasviriy vositalar badiiy-estetik ko'lamining keng ekanligidan dalolat beradi, uni matnda ta'sirchanlik, zavqlanish vositasiga aylantiradi. Ularning ma'lum qismi aforizm darajasiga ko'tarilib, xalq jonli tilida hozirda ham qo'llanilib kelinayotganligining sabablaridan biri ham ana shu. Demak, dostonlar matnida qo'llaniladigan bu kabi stilistik usullar oxir oqibatda asarning badiiy jihatdan yuksak bo'lishiga, uning tinglovchi va o'quvchida ma'lum estetik zavq uyg'onishiga xizmat qiladiki, xalqimiz badiiy tafakkurining mevasi bo'lgan BBlarning poetik vazifasi ham ana shundan iborat.

BBlar tarkibida bo'ladigan poetik o'zgarishlarda e'tirof etiladigan ikkinchi sabab she'r tuzilishiga qo'yiladigan talablardir. Shuning uchun almashinishning bu ko'rinishlarini shunchaki bir variant yoki sinonim sifatida qayd etib keta olmaymiz. Bir BB tarkibidagi o'zgarishlarga diqqat qilaylik:

Bahorda ochilgan gullar,

Gulga sayragan bulbullar (A-93).

Bahorda ochilgan toza lolasan,

¹ Якобсон Р. Поэтика масалалари. Таржимон И.Мирзаев. - Тошкент: ЎМЭ, 2005. - Б. 13-14.

² Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 226-228.

Yer ostida yotgan qanday balosan (A-259).

*Bahorda ochilgan **bog‘ning gulisan**,*

Sen ham bir-birovning joni-dilisan (A-340).


*Bahorda ochilgan **tog‘ning lolasi**,*

Boysaridir bu elatning to‘rasi (A-31).

BB yadrosini tashkil etadigan ravish va fe‘lni, ya‘ni payt va harakat ma‘nosini o‘zgarishsiz deb qarasak, harakat obyekti va subyekti o‘z aniqllovchisi bilan birgalikda jiddiy o‘zgarishlarga yuz tutgan. Buni quyidagi chizma tarzda berish mumkin:

1.1-chizma:

BBlar tarkibidagi o‘zaro matniy almashinuv jarayoni



Bu o‘zaro almashinish jarayonida **gul** bilan **lolani** bir-biriga sinonim deb ayta olamizmi? Bizningcha, yo‘q. Bu yerda stilistik talabdan ko‘ra poetik talab ustunlik qiladi. 1-misolning 8 bo‘g‘inli, 2-,3-,4-misollarning 11 bo‘g‘inli ekanligi BBlar tarkibida ma‘lum islohotlar bo‘lishini taqozo etadi va bu islohotlar bayon jarayonida mikromatnning umumiy ruhi yoki BBning sintaktik qurilishiga hamda qurilma tarkibidagi tayanch so‘zlarga bog‘liq bo‘lib qoladi. Bo‘g‘inlar soniga izchillik bilan amal qilish va **bulbul**, **dil**, **balo**, **to‘ra** singari tayanch so‘zlar ana shu o‘zgarishlarning asosi hisoblanar ekan, ularga qofiyadosh sifatida o‘rni bilan **gul** va **lola** so‘zlarining almashtirilishi hamda ularning muayyan aniqllovchilar olishida notabiiylik sezilmaydi.

BBlarda matniy o‘zgarishlarning kelib chiqishiga asos bo‘ladigan navbatdagi sabab stilistik talablar hisoblanadi. Uzoqqa bormasdan, yuqoridagi

misollarga qaytaylik. Ushbu BBlar kompleksidagi **bulbul**, **dil**, **balo**, **to'ra** kabi tayanch soʻzlarning misra oxirida berilishi va ularning taʼkidlovchi urgʻuni oʻz zimmasiga olishi ana shu stilistik ottenka yuzaga kelishining aynan oʻzidir. Bu soʻzlarga mos tarzda **gul** va **lola** soʻzlarining tanlanishi esa BBning umumiy mazmuniga jiddiy taʼsir koʻrsata olmaydi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, mohir dostonchilar BBlarni dostonni kuylash jarayonida erkin boshqarib, uni fikrlar, hislar oqimiga boʻysundira oladi. Ushbu xulosa, oʻz navbatida, doston aytuvchilarning syujet bayoniga individual yondashishiga ham munosabat bildirishni taqozo qiladi.

Muallif individual uslubining badiiy asar uslubiga jiddiy taʼsir oʻtkazishi stilistika nazariyasida allaqachonlar oʻz isbotini topgan¹. Baxshilar dostonchilikdagi, xususan, BBlarning qoʻllanilishidagi anʼnaviylikni saqlab qolganlari holda ularga muayyan oʻzgartirishlar kiritishga zaruriyat sezadilar. Bu oʻzgarishlar ularning individual uslubi, badiiy tafakkuri, quvvai hofizasi doirasida sodir boʻladi hamda BBlarning mazmuni va shakliga taʼsir koʻrsatadi. Quyida ayrim tasviriy vositalarni qiyoslash bilan chegaralanamiz:

1.2-chizma:

Baxshilar uslubiga xoslangan ayrim BBlardan namunalar

T/r	Fozil Yoʻldosh oʻgʻlida	Saidmurod Panoh oʻgʻlida	Xushboq Mardonaqul oʻgʻlida
1.	<i>Xazon boʻlsa bogʻda gullar soʻlar deyman, yor-yor, Soʻlgan gulga bulbul kelib qoʻnar deyman, yor- yor (A-378), Soʻlgan gulga bulbul kelib qoʻndimi (A-96), Soʻlgan gulga bulbul kelib qoʻnar deyman, yor-yor (A-378).</i>	<i>Ochilganda xazon urdi bogʻimdi, Bilmayman otamning holi ne boʻldi (A-SP-29) Xazon urib soʻldi ochilgan bogʻim, Sen-sen edin mening suyangan togʻim (A-SP- 30), Xazon urib bogʻning guli soʻlmasin, Dunyoda hech kishi bunday boʻlmasin (A-SP-60).</i>	<i>Bogʻda gullaring soʻlgusi, Aqlingni beklar olgusi (A-XM- 69). Bogʻda gul soʻlgani yoʻq, Menga navbat kelgani yoʻq (A- XM-107). Bogʻingda gul soʻlgani yoʻq, Menga navbat kelgani yoʻq. Unday demagin Barchinim, Hali toʻrang oʻlgani yoʻq (A- XM-107). Xazon boʻlib toʻkilgandir masho-</i>

¹ Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – М.: Художественная литература, 1959. -С. 226.

			<i>g'im, Bonot birla ekan, og'a, to'shagim (A-XM-73), Gap keladi so'ylay bersam tilima, Bulbul qo'nmay qoldi chaman gulima (A-XM-23).</i>
2.	<i>Banda ko'nar tangri qilgan ishiga (A-22, 87, 167), Har ishni bandaga xudo qilar-da (A-208), Banda ko'nar xudo qilgan ishiga (A-301, 366).</i>	<i>Men bilsang Qo'ng'irotda to'raman, Har ish bo'lsa peshonamdan ko'raman (A-SP-17), Alpomishbek Boysin elda to'radir, Har ish bo'lsa peshonadan ko'radi (A-SP-25).</i>	<i>Xudo qilgan ishiga odam ko'nadi, Do'mbiramni asli usta yo'nadi (A-XM-86).</i>
3.	<i>Oh urganda ko'zdan oqar selob yosh (A-21, A-60,149,234,341,342, 350,357). Men munглуqman, ko'zda selob yoshimdi(r) (A-85). Ko'zdan to'kma bunda selob yoshini (A-113). To'kibsan ko'zidan selob yoshini (A-296).</i>	<i>Ko'zingdan to'karman qonli yoshingni, CHapchaday uzaman o'tsang boshingni (A-SP-25,37), Kecha-kunduz oqdi ko'zingdan yoshing, Oldingda yo'q so'ylashlarga yo'ldoshing (A-SP-29), Ko'zimdan oqadi tinmay qonli yosh, Tirik bo'lsa neni ko'rmas qora bosh (A-SP-30),</i>	<i>Ko'zdan to'kar selob-selob jolasin, Vayron qilar bekning qo'rg'on-qal'asin (A-XM-76).</i>
4.	<i>Qiyg'ir degan qush o'tirar qiyoda, Jasading bor Rustamdan ham ziyoda, G'ayratingdan shohlar yurar piyoda (A-102,171, 227, 244, 329, 340).</i>		<i>Qiyg'ir degan qushlar bor, Ko'rinmaydi qiyoda. U sho'rlikning dardlari, alamlari ziyoda (A-XM-7).</i>

An'anaviylikni ham, ijodiylikni ham o'zida mujassam qilgan ushbu misollar har bir dostonchining bu tasviriy vositaga munosabati alohida bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, har bir baxshi tomonidan qayta ishlangan qaytariq misralar alohida birlik sifatida namoyon bo'ladi va ular BBlar fondiga

hissa bo'lib qo'shiladi. Bu kabi o'zgarishlar, ayniqsa, fe'l shakllarida sodir bo'lganligida yaqqol seziladi.

Shu ma'noda BBlar tarkibida bo'lgan frazeologik birliklardagi fe'llar xususida so'z yuritish maqsadga muvofiq. «Xazon bo'lmoq...» BBsi qo'shma gap qurilishida bo'lib, uning frazeologik birlik shaklidagi ergash gap qismida yana bir muhim a'zo – **bo'lmoq** ko'makchi fe'li mavjud. Ushbu BBning dostonlar tilida faolligi bu fe'lning turli shakllarda qo'llanilishiga, binobarin, semantik-stilistik ko'laminig kengayishiga ma'lum darajada sabab bo'ladi.

Bo'lmoq BB matnida **xazon bo'lib** (sinonimi: *urib, chalib, qilib*), **xazon bo'lmay** (sinonimi: *urmay, chalmay*) **xazon bo'lsa, xazon bo'lgin** kabi frazeologik birliklar shaklida qo'llanilgan. –**sa** ning vazifasi grammatika doirasida bo'lib, u bir harakatning amalga oshishi uchun boshqa bir harakatning bajarilishi shart qilib qo'yilganda ishlatilgan: *Xazon bo'lsa, bog'da gullar so'ladi, Bola-chaqa tayin ochdan o'ladi* (A-34). Ravishdoshning **-(i)b** qo'shimchasi va bo'lishsizlikni ifodalovchi **–may** qo'shimchali shakllar ravish ergash gaplar tarkibida kelgan hamda harakatning qanday holatda va vaziyatda yuzaga kelishini bildirgan: *Xazon bo'lib bog'da gullar so'libdi, Oblo sening aqli-hushing olibdi* (A-132), *Xazon bo'lmay bog'da gullar so'libdi, Qo'ng'irotdan ham bunda odam kelibdi* (A-129). Ko'rinadiki, bu yerda ham ularning vazifasi grammatika talablari doirasida amalga oshirilgan. Faqatgina shu o'rinda **-(i)b** ga qaraganda **–may** ekspressivlikning, ya'ni achinish ottenkasining mavjudligi bilan farqlanishini aytib o'tish joiz. Parchaning davomidan bunga ishonch hosil qilish mumkin: *To'qson polvon ko'p bir chatoq qilibdi, Boysarining qizi poyga bo'libdi* (A-129).

Tahlillar «Xazon bo'lmoq...» SFsi frazeologik birligi tarkibidagi fe'l shakli **bo'lmay**ning stilistik imkoniyatlari yana mavjud ekanligidan dalolat beradi. Quyidagi yettita misolni qiyoslaymiz:

1. *Xazon bo'lmay bog'da gullar so'lmasa* (A-53).
2. *Xazon bo'lmay bog'da gullar so'ldimi* (A-79).
3. *Xazon bo'lmay bog'da gullar so'libdi* (A-129).

4. *Xazon bo'lmay bog'da gullar so'lmaymi* (A-140).
5. *Xazon bo'lmay bog'da gullar so'lmasin* (A-226).
6. *Xazon bo'lmay bog'da gullar so'lmadi* (A-261).
7. *Xazon bo'lmay bog'ning guli so'lmaydi* (A-319).

Xazon bo'lmoq frazeologik birligi qo'shma gapning ergashgan qismi sifatida kelib, bosh gapdagi harakatning bajarilishi uchun zamin yaratadi. Demak, mazmunan olib qaralganda, bog'dagi gullarning so'lish-so'lmasligi tabiatdagi xazonrezgilik bilan bog'liq qilib qo'yiladi. Masalaga shu tarzda oydinlik kiritilsagina, yuqorida aytganimiz, stilistik ottenkalarni anglash oson kechadi. Dastlab **xazon bo'lmoq** va **so'lmoq**ning bir-biriga chambarchas bog'liqligi, bir harakat ikkinchisini taqozo qilishini, biri ikkinchisini keltirib chiqarishini yodda saqlashimiz lozim. Shundan keyingi **bo'lmoq** garchi har yetti holatda ham fe'lining bir xil – buyruq+ bo'lishsizlik+ravishdosh shakllari birikuvi tarzida berilayotgan bo'lsa-da, ularning semantik ma'no ifodalashdagi stilistik nozikliklari bir xil emasligi, binobarin, bu ottenkalarning vujudga kelishi bosh gap tarkibidagi **so'lmoq** fe'lining har bir holatda alohida shaklda kelayotganligi bilan bevosita bog'liq ekanligi o'z-o'zidan ayon bo'lib qoladi.

1-qiyos: *Xazon bo'lmay bog'da gullar so'lmadi, So'lgan gulga bulbul kelib qo'nmadi* (A-26). Parchadagi **bo'lmay** ravishdoshning boshqa bir shaklini olgan **bo'lmaguncha** fe'li bilan sinonim bo'la oladi. Shu ma'noda *Xazon bo'lmay bog'da gullar so'lmasa, Egam mening aqli-hushim olmasa* (A-53), *Xazon bo'lmay bog'ning guli so'lmaydi, So'lgan gulga sira bulbul qo'nmaydi* (A-319) kabi holatlarda ham bu sinonimik munosabat kuzatiladi.

2-qiyos: *Xazon bo'lmay bog'da gullar so'ldimi, Oblo sening aqli-hushing oldimi* (A-79). Bu o'rinda **bo'lmay** **burun**, **bo'lmasdan** **burun**, **bo'lmasdan** **avval** birikmalarining metonimiyalashgan shakli **bo'lmasdan** fe'li bilan sinonim bo'ladi. Shu ma'noda *Xazon bo'lmay bog'da gullar so'libdi, Qo'ng'irotdan ham bunda odam kelibdi* (A-129) singari misollar ham ushbu sinonimik guruhga kiradi.

3-qiyos: *Xazon bo‘lmay bog‘da gullar so‘lmaymi, Oblo sening aqli-hushing olmaymi* (A-140) kabi holatlarda **bo‘lmayning bo‘lib** ravishdoshiga sinonim bo‘lishligi haqida yuqorida fikrimizni bayon etganmiz.

Ushbu uch xil ko‘rinishdagi qiyoslash bir BB matnida **bo‘lmaguncha, bo‘lmasdan, bo‘lib** fe‘l shakllarining **bo‘lmay** fe‘liga sinonim bo‘la olishi mumkinligini, demak, **bo‘lmay** yuqoridagi SFlar tarkibida vaziyatga qarab ularning har uchalasining ham o‘rnini almashtira olish mumkinligini ko‘rsatadi. Shunday bo‘lsa-da, bir holatdagi **bo‘lmay** ikkinchi holatdagi **bo‘lmay** emasligi ham unga sinonim bo‘lib turgan so‘zlarni taqqoslash misolida oydinlashadi. Masalan: *Xazon bo‘lmay bog‘da gullar so‘lmadi* (A-261) - *Xazon bo‘lmaguncha bog‘da gullar so‘lmadi* - *Xazon bo‘lmasdan bog‘da gullar so‘lmadi* deyish mumkin bo‘lgani holda *Xazon bo‘lmaguncha bog‘da gullar so‘ldimi, Xazon bo‘lmaguncha bog‘da gullar so‘libdi* tarzida gap tuzib bo‘lmasligi bu matniy sinonimik variantlar o‘rtasidagi nozik stilistik o‘ttenkalarni ko‘rsatib turadi. Misollardan BB tarkibidagi **bo‘lmayning** katta umumlashtiruvchilik imkoniyati va keng qamrovliligi namoyon bo‘ladi¹.

«Alpomish»ning Saidmurod Panoh o‘g‘li variantida 3 marta qo‘llangan bu barqaror birikma tarkibida **bo‘lmoq** fe‘li bir o‘rinda buyruq maylining **–gin** shaklini olgan va istakni kuchli tarzda ifodalovchi stilistik vositaga aylangan. Masalan: *Xazon urib bog‘ning guli so‘lmasin, Dunyoda hech kishi bunday bo‘lmasin* (A-SP-60).

O‘zgarishga uchraydigan birliklarning asosiy qismi BBlar tarkibida tayanch so‘zlar yoki iboralar sifatida ishtirok etadi. Umum tomonidan e‘tirof etilmagan, barchaga tushunarli bo‘lmagan birlik hech qachon SFlar uchun realiya bo‘la olmaydi. Tushunishimizcha, avval ana shu vositalar barqarorlashadi. Masalan: ***Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘ladi, Bunda qolgan odam tayin o‘ladi*** (A-25). SF tarkibidagi *xazon bo‘lmoq, so‘lmoq, bog‘dagi gul* semalarini olaylik. Ushbu semalar ishtirokida shakllangan BBlarning 45 tasi tahlil qilindi. Ularning deyarlik barchasi «Alpomish»ning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida, faqat 3 tasi Saidmurod

¹ Махмадиев Ш. «Хазон бўлмоқ» стилистик формуласининг лингвопоэтикаси ҳақида («Алпомиш» достони асосида) // СамДУ илмий тадқиқотлар ахборотномаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 2006. № 2. - Б. 79 - 82.

Panoh o'g'li tomonidan qo'llanilgan. Matnda qo'llanish chastotasining orta borgan sari *xazon bo'lmoq* - yo'qlik, *so'lmoq* - yo'qlikka yuz tutish, *bog'dagi gul* - ezgulik, yaxshilikning ramziga aylana boradi va bir-birlariga oppozisiya tashkil qiladi. Bu semalar *barbodlik* sememasi atrofida birlashgach, dostonlar matnida qudratli stilistik vositaga aylanadi. Ular bir-biridan ajratib bo'lmaydigan holatga kelib, turg'unlik kasb etadi: *Xazon bo'lib bog'da gullar so'lganda, Jon jasaddan bir beqaror bo'lganda* (A-99), *Xazon bo'lib bog'da gullar so'lgandir, Avval Oblo uning aqlin olgandir* (A-390) kabi.

Ushbu BBning *barbodlik* sememasini tashkil etgan *xazon bo'lmoq* semasi Fozil Yo'ldosh o'g'li ijodida *xazon qilmoq*, *xazon urmoq*, *xazon cholmoq/xazon chalmog* singari bir qator shakllarda qo'llaniladiki, bu SFlar ma'no ko'lamining, shu bilan birga, sinonimik variantlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Garchi bir semema atrofida birlashsalar-da, stilistik jihatdan ularni bir safga qo'yib bo'lmaydi va barchasini bir sinonimik qatorga kiritish to'g'ri emas. Faqatgina *xazon urmoq* va *xazon cholmoq/xazon chalmog* variantlarida sinonimlik holatni kuzatamiz: *Xazon urib bog'da gullar so'ldimi, Oblo sening aqlu hushing oldimi* (A-372). *Xazon chalib bog'da guli so'lsin-da, Mening munojotim qabul bo'lsin-da* (A-214). Garchi bu o'rinda *urmoq* va *chalmog* so'zlari frazema tarkibida bir-biriga yaqin ma'nolarni ifodalayotgan bo'lsa-da, ularning stilistik qiymati bir xil darajada emas. *Xazon urmoq*da sodir bo'layotgan jarayondagi tabiiylik, o'z maromida bo'layotganlik ma'nosi anglashilsa, *xazon chalmog*da qandaydir kuchlar aralashuvi bilan jarayonning tezlashishi haqida istak ma'nosi anglashiladi. Zero, bu variantlar ana shu stilistik nozikliklarni farqlash imkonini paydo qiladi.

Buning ustiga bir umumiy semema atrofida birlashgan *xazon bo'lmoq*, *xazon qilmoq*, *xazon urmoq*, *xazon cholmoq/xazon chalmog* semalari o'zlarining alohida ma'nolariga ega. Ana shuning uchun ularning qo'llanish doirasi keng hamda ular ishtirokida shakllangan gaplar strukturasidagi so'zlar, ayniqsa kesim vazifasini bajarayotgan birliklar erkindir. Fe'llarning nutq jara-yonida poetik talab bilan turli morfologik shakllarni olayotganligini anglash qiyin bo'lmaydi: *Xazon bo'lib bog'da gullar so'ladi, Bunda qolgan odam tayin o'ladi* (A-25); *Xazon bo'lib*

bog'da gullar so'lganda, Jon jasaddan bir beqaror bo'lganda (A-99); *Xazon bo'lib bog'da gullar so'lgandir, Avval oblo uning aqlin olgandir* (A-390); *Xazon bo'lib bog'da gullar so'ldi, deb, Qalmoq yurti bul bexabar qoldi, deb* (A-253); *Xazon bo'lib bog'da gullar so'ldimi, Ajal yetib paymonasi to'ldimi* (A-44); *Xazon bo'lib bog'da gullar so'libdi, Oblo sening aqli-hushing olibdi* (A-46) kabi. BBlar tarkibidagi ayrim grammatik o'zgarishlar sodda gaplarning shakllanish jarayonidagi juz'iy o'zgarishlar sifatida qabul qilinsa-da, BBlarning lug'aviy struktural barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsata olmaydi.

Agar shunday bo'lmaganda edi, ularni stilistik me'yor va nutq madaniyati nuqtayi nazaridan tushunish ham qiyinlashardi. Fikrimizning isboti uchun yana yuqoridagi BBlarga murojaat qilamiz: *Xazon bo'lib bog'da gullar so'libdi*. Aslida *xazon bo'lmoq* va *so'lmoq* lug'aviy ma'nolari bir-biriga teng keladigan birliklar emas. BBlar tarkibida esa *so'lmoq* ham *yo'q bo'lmoq* ma'nosida keladi va *xazon bo'lmoq* bilan teng qiymatga ega bo'ladi hamda matnda go'yo ketma-ket keladigan jarayon sifatida talqin qilinadi: *xazon bo'lib* → *gullar so'libdi*, *xazon bo'lsa* → *gullar so'ladi*, *xazon bo'libdi* → *gullar so'libdi* kabi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, fe'l shakllarining qo'llanilishidagi turli-tumanlik BBlar semantikasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Umumiy holatda turg'un deb qaraladigan ko'pchilik BBlarning xususiy holatda juz'iy leksik-grammatik o'zgarishlarga uchrashi ularning semantik-stilistik doirasini kengaytirib boradi.

Fe'lga oid grammatik ko'rsatkichlar yordamida BBlardan anglashilgan semantik-stilistik nozikliklar ko'lamini «*Xazon bo'lmoq...*» birligi misolida belgilashga urinib ko'ramiz.

1. Ravishdosh ko'rsatkichi **-(i)b** va fe'lning o'tgan zamon shaklini hosil qiluvchi **-di** ning o'zaro birikuvidan hosil bo'lgan **-ibdi** BB tarkibidagi *so'lmoq* fe'li o'zagiga qo'shilganda o'zining asosiy grammatik ma'nosidan tashqari qo'shimcha quyidagi ma'nolarni keltirib chiqaradi: tashvishlanish, sarosimaga tushish, taraddudlanish: *Xazon bo'lmay bog'da gullar so'libdi, Shum falak boshima savdo solibdi* (A-19); afsuslanish: *Xazon bo'lmay bog'da gullar so'libdi, Oblo sening aqli-hushing olibdi* (A-46), *Xazon bo'lmay bog'da gullar so'libdi*,

Qo'ng'irotdan ham bunda odam **kelibdi** (A-129). Ushbu fe'lning og'zaki uslubga xos qisqargan shakli **so'lgandi** ham mavjud: *Xazon bo'lsa bog'da gullar so'lgandi, So'lgan gulga bulbul kelib qo'ngandi* (A-359). Ammo u **-dirning** emas, balki **edi** ning qisqargan ko'rinishi bo'lganligi uchun unda stilistik ottenka yo'q.

2. Sifatdosh ko'rsatkichi **-(a)r** va unga **deb, -dir** elementlari qo'shilgandan keyingi **-(a)r deb, -dirar** shakllarining yuqoridagi **so'lmoq** fe'liga birikuvidan hosil bo'lgan semantik-stilistik nozikliklar ko'lami birmuncha keng. Jumladan:

a) qo'rqinch: *Qizil gulin xazon qilib so'ldirar, Xanjar chekib qora bag'rin tildirar* (A-21);

b) muqarrarlik: *Jafolar solgandir tandagi jonga, Xazon bo'lsa zog'lar qo'nar gulshanga, Tayoq o'tib edi bunday sultonga, Qultoyqulni chirpib otdi osmonga* (A-81);

v) tavakkalchilik: *Xazon bo'lsa bog'da gullar so'lar, deb, Ajal yetsa, paymonasi to'lar, deb* (A-141);

g) bir harakatning ikkinchi harakatni keltirib chiqarishi: *Xazon bo'lsa bog'da gullar so'ldirar, So'lgan gulga bulbullarni qo'ndirar* (A-363).

3. Ish-harakatning hozirgi-kelasi yoki kelasi zamonda bajarilishini ifodalaydigan **-(a)di** qo'shimchasi qat'iyat ma'nosini beradi: *Xazon bo'lib bog'da gullar so'ladi, Bunda qolgan odam tayin o'ladi* (A-25).

Ushbu ko'rsatkichdan oldin bo'lishsiz shakli **-ma** qo'shilganda faqat grammatik ma'no – harakatning amalga oshmasligi anglashiladi: *Xazon bo'lib bog'da gullar so'lmadi, So'lgan gulga bulbul kelib qo'nmadi* (A-197). Bu birlik qo'shilganda yuzaga keladigan semantik-stilistik ottenka faqat **so'lmadi** fe'li orqaligina namoyon bo'la olmaydi. U boshqa omillarga ham bog'liq. Bu haqda biroz keyinroq to'xtalamiz.

Fe'lning **-ma** bo'lishsiz shaklidan keyin shart mayli uchinchi shaxs birligi ko'rsatkichi **-sa** qo'shilganda chorasizlik ottenkasi anglashiladi: *Xazon bo'lib bog'da gullar so'lmasa, Egam mening aqli-hushim olmasa, Senga beray desam qimiz bo'lmasa, Ketgin, qalmoq, qaydin topib berayin* (A-53). Ushbu ottenkani anglatadigan kompleks tarkibida **olmasa, bo'lmasa, berayin** so'zlari ham mavjud.

So‘lmoq fe’liga buyruq maylining III shaxs birligi ko‘rsatkichi qo‘shilganda SFdan niyat, istak, xohish ma’nolari anglashiladi: *Xazon bo‘lmay bog‘da gullar so‘lmasin, Oblo mening aqli-hushim olmasin* (A-242). Agar unga ta’kid, to‘siqsizlik yuklamasi **–da** qo‘shilsa, bu ottenkalar yanada kuchayadi: *Xazon bo‘lib bog‘da guli so‘lsin-da, Mening munojotim qabul bo‘lsin-da* (A-214) kabi.

Fe’lning o‘tgan zamon ma’nosini ifodalovchi **–gan** shaklidan keyin qo‘shilgan **–dir** SFlarda gumon, taxmin, ehtimollik ma’nolarini yuzaga keltiradi: *Xazon bo‘lib bog‘da guli so‘lgandir, Ajal yetib paymonasi to‘lgandir, Meni izlab bobom o‘g‘li o‘lgandir, Qarindoshi bul bexabar qolgandir* (A-116). **–gandir** birligining **to‘lmoq, o‘lmoq, qolmoq** fe’llari tarkibida bir maromda takrorlanishi ma’noni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Bu ottenkalar mazkur SFning biroz o‘zgartirilgan grammatik variantlarida ham anglashilib turadi: *Xazon bo‘lsa bog‘da gullar so‘lar deyman, yor-yor, So‘lgan gulga bulbul kelib qo‘nar deyman, yor-yor* (A-378). Yoki: *Xazon bo‘lsa bog‘da gullar so‘lgandir, Bu o‘chgan chirog‘im yonib qolgandir* (A-339).

So‘lmoq fe’li tarkibidagi so‘roq yuklamasi **–mi** SF matnida o‘z grammatik ma’nosidan tashqari (mas.: *Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘ldimi, Ajal yetib paymonasi to‘ldimi*. A-44) yana mensimaslik, bepisandlik ottenkalarini ham yuzaga keltirgan: *Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘ldimi, Oblo sening aqli-hushing oldimi, Boybo‘ri o‘lib, moli senga qoldimi?!* (A-77).

Uning je-lanuvchi shevalar tiliga xos bo‘lgan **so‘lami** shakli ham mavjud: *Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘lami, Oblo sening aqli-hushing olami* (A-354).

Agar ushbu qo‘shimchani olgan fe’l bo‘lishsizlik mazmunida bo‘lsa, ular anglatgan semantik-stilistik ottenkalar ham o‘zgaradi. Jumladan quyidagi ma’nolar yuzaga keladi:

a) ritorik so‘roq, o‘ziga o‘zi savol berish orqali fikrni tasdiqlash yoki tasdiqlatish: *Xazon bo‘lsa bog‘da gullar so‘lmaymi, O‘z elimda sig‘indi bo‘p yurguncha, Bo‘lak yurtida kun o‘tkazib bo‘lmaymi?!* (A-23);

b) norozilik, xafalik: *Xazon bo'lmay bog'da gullar so'lmaymi, Oblo sening aqli-hushing olmaymi, Ko'z ola qilasan Chibor otima, Bunday bo'lsang Ko'kdo'noning o'lmaymi?! (A-140).*

Shunday qilib, birgina «*Xazon bo'lmoq...*» misolida BB mazmunida paydo bo'lgan o'ndan ortiq semantik-stilistik o'zgarishlar va ularning yuz berishiga olib kelgan turli fe'l shakllari xususida to'xtalib, bu kabi noziklarning yuzaga kelishiga aynan fe'l shakllaridagi ana shu grammatik rang-baranglik va sinonimiya sabab bo'lishi haqida xulosaga kelish mumkin bo'ladi.

BBlar turg'un birikmalar sifatida e'tirof etilar ekan, nega shu barqarorlik doimo saqlanib qolinmaydi, degan savol tug'ilishi mumkin. An'anaviy syujetga, tasviriy vositalarga bo'lgan ijodiy munosabat BBlar tarkibida ro'y beradigan leksik-grammatik o'zgarishlarga ham sabab bo'ladi. Bunday paytlarda dostonning epik janr sifatidagi o'ziga xosligi hamda uning poetikasiga bog'liq bo'lgan omillardan ko'z yumib bo'lmaydi. Shuning uchun ham folklor asarlari poetikasi bilan shug'ullangan S.Lazutin «Har bir janrga oid asarlarda mazmuniy-shakliy yaxlitlikni, maqsadga yo'naltirilgan badiiy tizimni ko'ramiz. Ushbu badiiy tizim o'ziga xosligi bilan yaqqol ajralib turadi», deb ta'kidlagan edi ¹.

Harqalay, BBlar tarkibidagi struktural o'zgarishlar dostonlar poetikasi qonuniyatlariga muvofiq yuz berib, ularga nisbatan qo'llaniladigan *barqarorlik* atamasining nisbiy ekanligini ko'rsatadi. Bu o'zgarishlar garchi *barqarorlik* tushunchasiga, gapning grammatik shakliga jiddiy ta'sir ko'rsatmasa ham, turli xil semantik-stilistik nozikliklarning vujudga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

BBlarni dostonni kuylash jarayonida hech bir o'zgarishsiz, an'anaviy tarzda qo'llash bilan ayrim o'zgarishlarga uchragan holda qo'llash o'rtasida ma'lum ziddiyat bordek ko'rinadi. Agar ularni an'anaviy ko'rinishda qabul qilsak, aytuvchi xizmatiga soya tushgandek bo'lib qoladi. Ularni o'zgarishlar bilan qo'llash esa an'anaviylikka putur yetkazishi mumkin. Aslida bu ziddiyatda ham ma'lum qonuniyat bor. Dostonda qo'llanilayotgan har bir BB eposlardagi xalq

¹ Лазутин С.Г. Поэтика русского фольклора.- М.: Высшая школа, 1981. - С. 207.

donishmandligi namunasi sifatida yashashi bilan birga, nutqiy jarayon, improvizasion ritm, agar matn she'riy shaklda bo'lsa, vazn-qofiya singari poetik talablar natijasida ayrim o'zgarishlarga uchrashi improvizatsiya uchun me'yoriy holat hisoblanadi. Masalaga shu yo'sinda qaralsagina, improvizator individualligini ham e'tibordan chetda qoldirmagan bo'lamiz. Shu tarzda BBlarning ma'lum qoliplari asosida individual-ijodiy klishelar shakllanadi.

Demak, badiiy matnda poetik va stilistik talablar doimo yonma-yon yuradi hamda ular badiiy mahoratning tarkibiy qismi sanaladi. Shunday ekan BB tarkibida yuz beradigan har qanday individual o'zgarishlar qandaydir bir mahoratsizlikning, improvizatsiya jarayonidagi uquvsizlikning mevasi deb emas, balki ko'pincha poetik va stilistik ehtiyojning oqibatida sodir bo'lishini qayd etish maqsadga muvofiqdir. Har bir doston aytuvchining BBlarga bo'lgan bunday munosabati tasviriyy vositalarni faqat an'anaviylik mahsuli degan qarashdan voz kechishni taqozo qiladi. Zero, BBlar ham badiiy tafakkur mahsuli sanalar ekan, ular ham har bir dostonchi tilida sayqal topib, yangi-yangi ma'nolar kasb etib, jilolanib turadi degan fikrni olg'a surishga imkon beradi.

Matnga individual munosabat va muallifning an'anaviy syujetga ijodiy yondashish huquqi xususida gap ketganda yana bir holatni ta'kidlash o'rinli. Baxshi dostonni kuylash jarayonida voqealar tafsilotiga, uning badiiy ifodasiga shu darajada berilib ketadiki, natijada bayon izchilligi bilan bog'liq bo'lgan favqulodda obrazli-individual BBlar paydo bo'ladi. Shoirning o'zi ham doston voqealarining faol ishtirokchisiga aylanib ketadi va original BBlar yuzaga keladi. Bu holat Xushboq Mardonaqul o'g'lida quyidagicha kuzatiladi: *So'm-so'm tilla so'm tilla, Suvga solsa botmasin. Xudo bergan davlating Tepkilasa ketmasin* (A-XM-5). *Bog'da bordir kishmish, o'rik, Labing yupqa, qoshing suruk. Mingan otim toza juyruk, So'zing haqorat bo'ldi-ku* (A-XM-107). Uyg'unlik shu darajadagi, shoirning o'zi ham doston voqealarining faol ishtirokchisiga aylanib ketadi va original BB yuzaga keladi: *Bejog'im tortdi shogirdlar, Sozimning torlari uzildi. Farmon berdi Boysari, Tikilgan o'tovlar buzildi* (A-XM-19).

3.3. Barqaror birikmalarga xoslangan o‘xshatishlar.

Folklor an‘analariga xos bo‘lgan poetik vositalar tizimida o‘xshatishlar g‘oyatda muhim halqani tashkil etadi. Chunki «u obraz yaratishga ko‘maklashishi bilan badiiylikni yuzaga keltiruvchi, ijodkor maqsadini, niyatini to‘laroq ifoda etuvchi vosita sifatida, emotsionallikni ro‘yobga chiqaruvchi badiiy usul sifatida ishtirok etadi»¹.

O‘zbek tilshunosligida o‘xshatishlarning tasviriy vosita sifatida R.Qo‘ng‘urov, M.Mukarramov, S.Karimov va boshqalar olimlar tomonidan keng o‘rganilganligi va o‘zining nazariy bahosini olganligi ma‘lum.

Ana shu an‘analardan kelib chiqib, dostonlar tilida, xususan barqaror birikmali qurilmalar tarkibida o‘xshatishlarning qo‘llanilishida o‘ziga xosliklar mavjud ekanligini ta’kidlaymiz. Bu o‘ziga xoslik o‘xshatish materialida ham, uni yuzaga keltiruvchi grammatik vositalarda ham yaqqol namoyon bo‘lib turadi. Shu ma’noda sifat va ravish yasovchi **-day** va uning ayrim variantlari xalq og‘zaki ijodi materialidan mustahkam o‘rin egallaganki, buni biz an‘anaviy poetik birikmalarga xoslangan barqaror birikmalarda ham bu tasviriy vositani kuzatamiz.

X.Doniyorov o‘zbek tilida parallel shakl hisoblanadigan **-day** / **-dek** ning birinchisi qipchoq shevalaridan, ikkinchisi esa shahar shevalaridan olinganligini ko‘rsatib, ular «adabiy tilda morfologik variantlarga bo‘lib qolmasdan, balki ma‘lum darajada differensiallashgan grammatik-stilistik sinonimlar» ekanligini ham ta’kidlagan². Olim qayd etgan differensiallashuv an‘anaviy poetik birikmalarga xoslangan BBlar matnida ham ayon bo‘lib turadi. Birinchidan, o‘xshatishning **-dek** varianti dostonlar tilida nihoyatda kam qo‘llaniladi. Tahlil qilingan BBlarda u biror marta ham ishlatilgan emas. O‘xshatishli matnlarning aksariyat qismida **-day** ishtirok etgan. **-day** BBlar tarkibidagi **gul** so‘zida **gulday tarz** (A-33,67,173), **gulday yuz** (A-32,130,194) kabi birikmali shaklda qo‘llangan:

Olmadayin so‘lgan gulday tarzim bor,

¹ Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари.-Самарканд: СамДУ нашри, 1994. – Б. 10.

² Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. - Тошкент: Фан, 1979. – Б. 108.

Turkistondan bir boy ko‘chib kelibdi (A-33);

Olmadayin so‘lgan gulday tarzim bor,

Mushtiparman sizga aytar arzim bor (A-67);

Olmadayin so‘lgan gulday tarzim bor,

Toychixonim, senga aytar arzim bor (A-173).

Ammo bu vositalarning qo‘llanilishini katta matnlar hisobida qaralsa, ularning qo‘llanish ko‘lami birmuncha kengaygan. Masalan: **bulbulday, oshday, selday, olqorday, odamday, qirday, yo‘lbarsday, norastaday, qorday** (A-167, 301) va hokazo.

Ushbu grammatik vositaning qo‘llanilishidagi ikkinchi tomon shuki, uning stilistik jihatdan farq qilib turadigan hamda faqatgina qipchoq shevalari uchun xos bo‘lgan **-dayin** varianti mahsuldor uchraydi:

Olmadayin so‘lgan gulday tarzim bor,

Mushtiparman sizga aytar arzim bor (A-33,67,173).

-day va -dayin shakllari qiyoslanganda ular orasida muayyan stilistik farqlar mavjudligi ma’lum bo‘ladi:

*G’am bilan sarg‘aygan **gulday** tarzi bor,*

Qo‘tonida qo‘y-qo‘zining izi bor (A- 96).

*G’am bilan sarg‘ayib **guldayin** diydor,*

Bir nechalar o‘z holidan bexabar (A-21).

*G’am bilan sarg‘aydi **guldayin** diydor,*

Eli-xalqing senday shohga intizor (A-281) kabi.

Misollardagi tafovutlar shundan iboratki, **-day** yordamida amalga oshirilayotgan o‘xshatishda u ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi stilistik vosita emas, balki grammatik element sifatida ishtirok etgan. Agar yuqorida keltirganimiz **gul** so‘zli birikmalarda qandaydir obrazlilik mavjud bo‘lsa, ularni o‘xshatish

obyekti va subyekti o'rtasida vujudga kelgan obrazli-mantiqiy aloqadorlikdan axtarish lozim. **-dayin** ning qo'llanilishida esa, bu vazifani o'xshatish obyekti va subyekti o'rtasidagi munosabat bilan birga grammatik vosita ham o'z zimmasiga olgan:

*G'am bilan sarg'ayar **guldayin** diydor,*

Bul sening ostingda ketdi Boychibor (A-131).

Bunda aynan **-day** ga qo'shilgan **-in** stilistik vazifani o'z zimmasiga oladi. Uning kelasi zamon ravishdoshni hosil qiladigan **-a,-y** qo'shimchalaridan keyin qo'shilgan holatida ham stilistik noziklik mavjud. Qiyoslaymiz: **boray-borayin, kelay-kelayin, ketay-ketayin, yozay-yozayin** va hokazo. **Boray, kelay, ketay, yozay** fe'llarida harakatni amalga oshirish uchun shunchaki istak ma'nosi anglashilib tursa, **borayin, kelayin, ketayin, yozayin** fe'llarida **-in** qo'shimchasi tufayli bu istak-xohishning kuchli, samimiy ekanligini yoki yalinish ohangining mavjudligini ko'rsatuvchi subyektiv-uslubiy ma'nolar mavjud.

BBlar matnidan olingan xuddi shu kabi ayrim misollarni qiyoslash ham mumkin:

*Xazon **bo'lmay** bog'da gullar so'lmaymi,*

Oblo sening aqli-hushing olmaymi (A-140).

Har kim o'z eliga bekmi, to'rami,

*O'zi **o'lmay** kishi yorin berami (A-162).*

*Dardli qul **dardimni** kimga **yorayin**,*

*Hasratimdan eldan el **axtarayin** (A-40).*

*Dardmandman, dardimni **yorib turayin**,*

*Dardim bordir, senga **arza berayin** (A-200).*

Xuddi ana shu fikrni barqaror birikmalarda o'xshatish tarkibiga kirgan **-in** haqida bimalol aytish mumkin. Farq shundaki, bu yerda u orqali shakllanayotgan uslubiy noziklik biroz boshqacharoq. Ya'ni dostonchi tilida sarg'ayib borayotgan yuzning-diydorning gulga qiyoslanishi tasvir samaradorligini bir baravar oshirsa, **-in** tufayli bu samaradorlik ikki baravar kuchayadi. Kuylovchidagi achinish, hamdardlik hissini berish ana shu qo'shimcha tufayli o'z badiiy maromiga yetadi.

BBlar matnida yuqorida aytganimizdek, **-dayin** ko'pchilik o'rinlarda **gul** so'ziga qo'shilgan va **guldayin diydor** birikmasini hosil qilgan. «Alpomish» dostonining fozil Yo'ldosh o'g'li matnida **gul** so'zi 3 holatda o'z o'rnini **olma** so'ziga bo'shatib beradi:

***Olmadayin** so'lgan gulday tarzim bor,*

Mushtiparman sizga aytar arzim bor (A-33,67,173).

Tasvir jarayonida epik qahramon holatidagi ruhiy tushkunlikni, ma'lum ma'nodagi muhtojlikni, uning yuzida ham aks etib turgan so'lg'inlikni bo'rttirib ko'rsatish istagi birinchi o'ringa chiqar ekan, bu almashinish tabiiy bir holdir. Yuqorida ta'kidlanganidek, dostonlar tilida, xususan, biz o'rganayotgan birliklar tarkibida o'xshatishni yuzaga keltiruvchi vositalar orasida **-day / -dayin** ko'rsatkichigina faol. Grammatik vositalardan **-ona** va **-larcha** qo'shimchalari sanoqli darajada uchraydi. O'xshatishning leksik vositalariga ham deyarli murojaat qilingan emas. *Uchqur kabi qanotingdan qayrilib, Yugruk eding, tuyog'ingdan toyrilib* (A-29) parchasidagi **kabi** vositasini samarali qo'llangan deb ayta olmaymiz.

Qipchoqlar tilida **o'xshamoq** ma'nosini beradigan **mengzamoq** fe'li Alpomish bilan Qorajonning ilk uchrashuvidagi aytishuvida qo'llanilgan: **Qorajon:** *Bildim qo'ng'irotlik zotingni, Malakdayin suratingni, Qovdon yegan otingni, Men birovlariga mengzadim.* **Alpomish:** *Bilsang qo'ng'irotlik zotimni, Malakdayin suratimni, Qovdan yegan otimni Qalmoq, sen kimga mengzading?* (A-105). **Mengzamoq** so'zi ayrim lug'atlarda qayd etilgan¹. **Sifatli** so'zi ham o'xshatish vositasi bo'lgan:

Jamoling o'xshaydi osmonda oyg'a,

Qoshingni o'xshatdim egilgan yoyg'a,

Jasading o'xshaydi bo'z qarchig'ayg'a,

Yonboshlab yotishing ming qo'yli boyg'a,

Boybachcha sifatlim, qaydin bo'lasan? (A-103).

¹ Ўзбек халқ шевалари луғати. - Тошкент: Фан, 1971. – Б. 179.

Mengzamoq, sifatli soʻzlari anʼanaviy poetik birikmalar tarkibida emasligi uchun ularga alohida urgʻu berilmadi. Ammo ular ham XOIga xos boʻlgan alohida oʻxshatish vositasi sanaladi.

Shunday qilib, barqaror birikmali qurilmalar tarkibida oʻxshatishlar obrazlar qiyosidagi anʼanaviylikni saqlab turuvchi muhim lingvistik unsur sifatida namoyon boʻladi. «Va eng asosiysi bu mengzashlar gʻoyat did bilan qilinadi. Chunki xalqning tili goʻzal. U boy va jilvador, tovlanuvchi»¹.

3.4. Barqaror birikmalarga xoslangan epitetlar.

BBlar tarkibini poetik material sifatida oʻrganishning qiziqarli ekanligi haqidagi fikrlarni epitetlar toʻgʻrisida ham aytish mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda epitetlarning tasviriy, lirik, liro-epik, doimiy, metaforik, baholovchi, bezak, kuchaytiruv kabi turlari koʻrsatib oʻtilgan². «Badiiy uslub doirasida, - deb yozadi S.Karimov, - eng avvalo, xalq ogʻzaki ijodi uchun xarakterli boʻlgan doimiy epitetlar qaralishi kerak. Chunki bu epitetlar xalq tomonidan, sanʼatkorlar, baxshilar tomonidan koʻp vaqtlardan buyon qoʻllanilib kelinayotgan yaxlit, quyma holiga kelgan anʼanaviy tasviriy vositalardir»³. Darhaqiqat, bu oʻrinda biz uchun xalq ogʻzaki ijodi materialiga xos boʻlgan anʼanaviy-doimiy epitetlar ahamiyatlidir.

Epik asarlar tili ham mazmun, ham shakl jihatdan tasvirlanayotgan davr hayotiga, oʻsha davr kishilari ruhiyatiga mos kelishi tabiiy bir holdir. Bu hayotni umumiy tarzda, taxminan shunday tasavvur etsa boʻladi: dashtu sahrolarda, togʻu adirlarda kechadigan chorvadorlar turmushi, turli sabablar bilan qabila va urugʻlar, mamlakatlar va xonliklar oʻrtasida sodir boʻladigan jangu jadallar, insonlar oʻrtasidagi ishqiy sarguzashtlar va boshqalar⁴.

Tabiiyki, ularning badiiy ifodasi uchun til birliklari, jumladan, epitetlar ana shu voqyelikdan olingan, narsa-hodisalarga mos tarzda tanlangan. Keyinchalik esa

¹ Тўйчибоев Б. «Алпомиш» ва халқ тили.- Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 72.

² Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. - Тошкент: Фан, 1977. – Б. 27-34.

³ Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. - Самарқанд: СамДУ нашри, 1994. –Б. 22.

⁴ Тўйчибоев Б. «Алпомиш» ва халқ тили. - Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 19-23.

epik matnlarda sayqal topib, doimiy epitetlar shaklida XOIdan mustahkam o‘rin olgan.

An’anaviy va obrazlilik nuqtayi nazaridan bu fikrlar ma’lum bir asosga egadir.

Bu doimiy epitetlarning leksik manzarasi quyidagicha: birinchidan, epitet olgan obyektlar: inson (ko‘pincha ma’shuqa), inson tanasining ayrim a’zolari, jonivorlar (asosan ot), otning asbob-anjomlari va qurol-aslahalar, ikkinchidan, epitet vazifasini o‘tagan narsa-hodisalar; o‘simliklar, metallar, ba’zan esa joy nomlari, ishq-muhabbatga doir belgi-sifatni bildiruvchi elementlar. Bu tasviriy vositalarning bezak epitetlar deb ataluvchi turi ham mavjudki, ular an’anaviy poetik birikmalar tarkibida **oltin, kumush, zar, tilla, olmos, po‘lat, temir** kabi leksemalar misolida barqarorlashgan.

Bu tasviriy vositalarni BBli qurilmalarning umumiy fonida ko‘zdan kechiramiz:

1. Insonga berilgan sifat: **gul yuzli dilbar**: *Ko‘nglingni bo‘lmasin, gul yuzli dilbar, Otlangin sen, jonim bolam, gajakdor* (A-28), *Ko‘nglingni bo‘lma sen, gul yuzli dilbar, Senga qancha aytadigan so‘zim bor* (273). Garchi BBli qurilma doirasida bo‘lmasa ham ta’kidlash joizki, otlashgan **dilbar** so‘ziga qo‘shilib epitet vazifasini bajargan ushbu birikmaning o‘zi metaforizasiya hodisasiga uchraydi va otlashadi: *Eshitgin, gul yuzli, aytgan dodimni, Otang o‘ldirganmi mening otimni?* (A-283), *Quloq sol, gul yuzli, aytgan tilima, Isriq nishon beray sening qo‘linga* (A-284). Yana: **qalam qoshli**: *Soyi-soyi saykalay qo‘ydi boshlay, yoy-yoy, Qalam qoshli yengalay o‘lan boshlay, yoy-yoy* (A-374).

Qurol-aslaha nomlari ham metaforizasiyalashib, otlashib, yana o‘ziga epitet qabul qilgan: **olmos**: *Qo‘lida bor keskir olmos, Sermaganda jon qutulmas* (A-291); **po‘lat**: *Belingda yarqillar keskir po‘lating, O‘ynaydi ostingda Boychibor oting* (A-131).

Shu o‘rinda bir hodisani eslab o‘tish joizki, epitet vazifasini o‘tashi lozim bo‘lgan birliklar BBli tarkibida nafaqat metaforizasiya, balki metonimiyaga ham uchrab, tilimizning tasviriy imkoniyatlarini yanada kengaytirgan: **gulgun qirmizi**

(kiyim): *Ustiga kiygani **gulgun qirmizi**, Aqlingni oladi jodugar ko'zi* (A-262), *Ustingga kiygani **gulgun qirmizi**, So'zimni anglagin o'zbakning qizi* (A-118) kabi.

2. Otga berilgan sifat: **arabi tulpor, arabi ot**: *Ostingda o'ynaydi **arabi tulpor**, O'zing aytding, yuradigan yo'ling bor* (A-310), *Ostimda o'ynasa **arabi otim**, Men ketsam qolmaydi, do'stim, toqating* (A-132).

3. Otning asbob - anjomlariga beriladigan sifatlar: **oltin to'qa**: *Boshingdagi zarrin nobot jirg'am, deb, Bedovga yarashgan **oltin to'qam**, deb* (A-324); **zarli davir**: *Chochog'i zumratdan **zarli davirdi**, Gana-gana bandalaring joyildi(r)* (A-84).

4. Qurol-aslahalar: **oq kirovka, oltin kirovka**: *Oq kirovka, oltin sovut kiyaman, Bor kuchimni bilaginga jiyaman* (A-208), *Kumushdandir qarchig'ayning chegasi, **Oltindandir kirovkaning** yoqasi* (A-323), ***Oltindandir kirovkaning** yoqasi, Keldingmi, jon bolam, yurtning egasi?* (A-348); **oltin sadoq**: *Egarning qoshida **oltin sadog'ing**, Borgandan tegadi bodom qobog'ing* (A-108); **Oltin sovut**: *Yigit piri hazrat Dovud, Oq kirovka, **oltin sovut*** (A-219).

Barqaror birikmalar tarkibida yana qurol-aslahalar otlari bo'lgan **xanjar** va **tig'** so'zlari ishtirok etgan epitetsiz birikmalar mavjud. Ular metaforik holda qo'llanilganligi bilan e'tiborga molik: **jafotig'i, ayroliq xanjari**: ***Jafotig'i** bul kun jondin o'tdimi, **Ayroliq xanjari** bag'rin yirtdimi* (A-44,58,74,164,368).

Barqaror birikmali qurilmalardagi doimiy epitetsiz birikmalarni semantik guruhlariga ajratib tahlil qilar ekanmiz, ular orasida qurol-aslahalarni tavsiflovchi epitetsizlarning qo'llanilishi epitetsizlarning boshqa turlariga qaraganda faolligi ma'lum bo'ladi. Shu faollikning o'ziyoq ularning xalq og'zaki ijodi tasviriy vositalari fondidan mustahkam o'rin olganligini ko'rsatadi. Bu kabi epitetsizlar bir holatda jang qurollari materialining qimmatbaholigini bildirsa (**oltin sovut**), ikkinchi bir vaziyatda mustahkamligiga ishora qiladi (*po'lat nayza*), uchinchi bir o'rinda uning sifatini ajratib ko'rsatadi (*keskir po'lat*).

Xullas, an'anaviy poetik birikmali BBlarni qay darajada idrok etishga urinmaylik, uning tarkibidagi epitetsiz birikma go'zal poetik ifoda sifatida qolaveradi. XOI tadqiqotchilaridan biri S.Yo'ldosheva ham qahramonni, ba'zan

uning xatti-harakatlarini norga qiyoslash o'zbek eposining muhim atributlaridan biri ekanligini ta'kidlagan edi ¹.

3.5. Barqaror birikmalarda takror.

Takror badiiy matnda keng qo'llaniladigan usullardan biri sifatida e'tirof etilar ekan, uning sodir bo'lishi ham muayyan ehtiyojlarga bog'liqdir. Ma'noni alohida ta'kidlash, ajratib va bo'rttirib ko'rsatish bilan birgalikda «til birliklariga emosional bo'yoq, alohida ohang, joziba berish vazifasi» ham takror usuli zimmasidadir². Shuning uchun lafziy san'atlardan biri sanaladigan takror mumtoz adabiyotda alohida mavqyega ega bo'lgan. Bu usulning XOI matnlarida uchrashi esa takrorning ildizi poetik san'at sifatida uzoq davrlarga borib taqalishidan dalolat beradi³.

Dostonlar matnining tarkibiy qismi sanaladigan BBlarning poetik xususiyatlaridan biri ham uning takrorga yuz tutishidadir. Ammo bu jarayon dostonlar tiliga xos bo'lgan tarzdagina kechadi. Ularning muttasil takrorlanib turishi aniq, ammo matnning qaysi o'rinlarida takrorlanishi yuzasidan qat'iy tartib belgilab qo'yilgan emas. Ba'zan bu vosita orqali yuz beradigan takror she'riy bo'laklarning boshlanishida, ba'zan o'rtasida kelishi kuzatiladi. Matn oxirida takrorlanishi, bayonning yakunida xotima vazifasini bajarishi deyarlik kuzatilmaydi. Demak, bu tasviriy vositaning takrorlanishi undagi stilistik imkoniyatning yuzaga chiqishida asosiy shart qilib qo'yilmaydi. Shunga qaramasdan, u o'rni bilan bu vazifani ado etishi ham mumkin: ***Shamol tursa shobirlaydi shoterak*** misrasi mavjud. U dostonda bor-yo'g'i ikki marta uchragan: ***Shamol tursa shobirlaydi shoterak, Enang cho'ri, asli o'zing badirak*** (A-365), ***Shamol tursa, shobirlaydi shoterak, Yodigorga zulm qilma, badirak*** (A-354). Biz tahlil qilgan boshqa dostonlar yoki variantlarda bu BBni uchratmadik. Bu esa

¹ Йўлдошева С. «Алпомиш» дostonидаги ўхшатишларнинг го'явий-эстетик функцияси // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1986. -№ 1.- Б. 47-52.

² Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1980. -Б. 232-233.; Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. - Самарқанд, 1994. - Б. 54-55.

³ Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати.- Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. - Б. 34-56.; Ишаев А. Халқ дostonлари лексикасига оид кузатишлар // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1970. -№ 5. - Б. 56-63.

mazkur birikmaning Fozil Yoʻldosh oʻgʻli ijodiga mansubligi, binobarin, ayrim BBlarning individual xarakterga ega boʻlishi, shu bilan birga, anʼanaviy dostonchilik poetikasidan oʻrin egallashi haqida xulosa chiqarishimizga imkon beradi.

Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi, va eng muhim jihati, bu misraning shoirona va oʻzbekona shakllantirilganligidaki, biz uni faqat fonetik vositalar yordamida yuzaga kelganligini qayd etamiz. **Sh** tovushining uch soʻz tarkibida takrorlanib, alliterasion holatning vujudga kelishi goʻzal bir quyma misraning paydo boʻlishiga asos boʻlgan. Dostonchining misrani yaratishdagi mahorati qayerda koʻrinadi? **Shobirlaydi** soʻzida. Shevadagi **shobir** soʻzi **tovush** sememasi doirasida qaraladi. **Tovush chiqarmoq**ning maʼnosiga **shobirlamoq**ning maʼnosi mos keladi. Baxshining topqirligi uni oʻz oʻrnida ishlata olganligida va alliterasion holatni vujudga keltira bilganligida. Afsuski bu kabi goʻzal misralarni BBlar tarkibida har doim ham uchratavermaymiz. Ammo kam boʻlsa-da, bor. «Alpomish»ning Xushboq Mardonaqul oʻgʻli variantidan ayrim misollar keltiramiz: *Pari qizlar shoyi kiyib shaylansin, Har yerda gʻanimning qoʻli boylansin* (A-XM-41), *Tomoshaga shoyi kiyib shaylandi, Buni koʻrib botirlar ham oʻylandi* (A-XM-90), *Qoʻying qoʻyni joylasin, Karsan quyruq boylasin, Egiz-egiz egiz tuv, Erinmasang uchov tuv* (A-XM-5) kabi.

Takror nafaqat dostonchilik, balki umuman XOI janrlari uslubiga xos sanʼat boʻlib, uning rang-barang turlarini oʻrganish badiiy janrlar poetikasi haqida qiziqarli materiallar beradi.

Malakaviy bitiruv ishimizning 2-bobi asosida yuzasidan olib borilgan kuzatishlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Dostonlar matnining tarkibiy qismi boʻlgan BBlar epik asarlar tilini bezovchi vositagina emas, balki matnni bir maromda ushlab turuvchi ritmik-poetik hodisa hamdir. Ular faqatgina dostonlar uslubiga xos tasviriy vosita boʻlib, asosiy matn mazmuniga jiddiy taʼsir koʻrsata olmasa-da, qoʻshimcha stilistik vazifalarni ado etadi. U tufayli matnda anʼanaviylik va ijodiy ruh hukmron boʻladi.

2. BBlar struktural jihatdan to'raligicha dostonlar matni shaklida bo'lib, 7, 8, 11 bo'g'inli barmoq vaznida va ular 6+5, 4+4+3, 3+5, 5+3, 4+4, 4+3 tarzidagi turoqlar ko'rinishida voqye bo'ladi.

3. O'xshatish, epitet va takror singari trop va stilistik figuralarning tasviriy vosita ichida tasviriy vosita sifatida kelishi BBlarning emosional-ekspressiv ma'no kasb etishida muhim rol o'ynaydi. O'xshatishlarning asosan *-day/-dayin* kabi grammatik, *mengzamoq, sifat* singari leksik ko'rsatkichlar yordamida yuzaga kelishi, boshqa o'xshatish vositalarining deyarli uchramasligi hamda sanoqli narsa-hodisalarning o'xshatish obyektiga aylanishi o'zbek xalqi hayoti va qipchoq shevalariga xos xususiyat sifatida baholanadi.

XULOSA

Malakaviy bitiruv ishi yuzasidan olib borilgan kuzatishlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Lingvofolkloristika doirasida qaraladigan klishe nazariyasi tizimiga kiruvchi barqaror birikmalar klishe'larga xos bo'lgan an'anaviylik, barqarorlik, ixchamlik, ta'sirchanlik, obrazlilik kabi xususiyatlarga ega.

2. An'anaviy poetik birikmali barqaror til birliklari nafaqat dostonlar matni, balki xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari, xususan qo'shiqlar, ertaklar, askiyalar uchun ham xosdir.

3. Kuzatishlardan ko'rinadiki, barqaror birikmalarning o'rganilishi ko'proq folkloristik nuqtayi nazardan amalga oshirilgan.

4. Barqaror birikmalar tarkibidagi tayanch so'zlar uning muhim komponentidir. Ular semantik birlik sifatida muayyan sememalarga birlashadi va dostonlar matnida muhim stilistik vositaga aylanadi. Barqaror birikmalar tarkibidagi leksik-grammatik birliklararo sinonimiya hodisasi uchrasa ham, bu xususiyat ularning o'zida kuzatilmaydi. Ularning bir-biriga sinonim bo'la oladigan, birining o'rnini ikkinchisi bosa oladiganlari yo'q. *Xudo qozi, payg'ambarlar noyibi* va *Qozining oldida shabgir noyibi* kabi holatlar o'zaro sinonim emas, balki improvizatsiya jarayonida biri ikkinchisidan o'sib chiqqan variant sifatida qaraladi. Doston bayonidagi uzluksiz takrorlar ana shunday variantlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

5. Barqaror birikmalarning folklor matnidagi barqarorligiga oid qarashlar nisbiy xarakterga ega. Ularning tarkibidagi leksik-grammatik o'zgarishlar, ayrimlarining individual-mualliflik xususiyatga ega ekanligi bu fikrning nazariy jihatdan to'g'ri ekanligidan dalolat beradi.

6. O'xshatish, epitet va takror singari trop va stilistik figuralarning tasviriy vosita ichida tasviriy vosita sifatida kelishi an'anaviy poetik birliklarning emosional-ekspressiv ma'no kasb etishida muhim rol o'ynaydi. O'xshatishlarning asosan *–day/-dayin* kabi grammatik, *mengzamoq*, *sifat* singari leksik ko'rsatkichlar yordamida yuzaga kelishi, boshqa o'xshatish vositalarining deyarli

uchramasligi hamda sanoqli narsa-hodisalarning o'xshatish obyektiga aylanishi o'zbek xalqi hayoti va qipchoq shevalariga xos xususiyat sifatida baholanadi.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlar an'anviy poetik birikmalarining o'zbek dostonchiligi an'analariida o'ziga xos mavqega ega ekanligi, poetik vositalar tarkibida mustahkam o'rni borligi, epik asarlar matnida rang-barang semantik-uslubiy nozikliklarni namoyish etish mumkinligi haqida xulosalarga kelishimizga asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. – 592 б.
2. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
3. Ислон Каримов. «Алпомиш» достонининг 1000 йиллигига бағишланган тантанали маросимда сўзланган нутқ // «Халқ сўзи», 1999 йил 9 ноябрь.
4. Абдурахмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. - Тошкент: Фан, 1971. - 183 б.
5. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. - 352 б.
6. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. - М.: Художественная литература, 1959. - 656 с.
7. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. - Тошкент: Фан, 1979. - 160 б.
8. Ёрматов И. «Алпомиш» достонида сўз такрори шаклларининг қўлланилиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1989. -№ 5. - Б. 53-58.
9. Ёрматов И. «Алпомиш» достони поэтикасининг баъзи масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1990. - № 5. Б. 33-38.
10. Ёкуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. - Тошкент: Фан, 2005. - 160 б.
11. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. Избранные труды.- Л.: Наука, 1974. - 728 с.
12. Жуманазарова Г. Халқ достонларидаги ўхшатишнинг лингвопоэтик имкониятлари. – Тошкент:Тафаккур, 2011. - 54 б.
- 13.Жуманазарова Г. Халқ достонларида сажъ ва такрорнинг лингвопоэтик имкониятлари. – Тошкент:Тафаккур, 2011. - 34 б.

14. Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). – Тошкент, 2012. - 288 б.
15. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Тошкент: Ўқитувчи, 1990. - 304 б.
16. Исҳоқов Ё. Поэтик анъана ва индивидуал услуб // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. - № 6. - Б. 33-38.
17. Йўлдошев Б. Сўзлашув нутқи формулаларининг синтактик жиҳатдан ўрганилишига доир // «Ўзбек тили грамматик қурилиши масалалари» тўплами. - Самарқанд: СамДУ нашри, 1984. - Б. 56-60.
18. Йўлдошев Қ. «Алпомиш» талқинлари. – Т.: Маънавият, 2002. - 168 б.
19. Йўлдошева С. «Алпомиш» дostonидаги ўхшатишларнинг ғоявий-эстетик функцияси // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1986. - № 1. - Б. 47-52.
20. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. - Самарқанд: СамДУ нашри, 1994. - 72 б.
21. Лазутин С.Г. Поэтика русского фольклора. - М.: Высшая школа, 1981. - 221 с.
22. Маҳмадиев Ш. «Хазон бўлмоқ» стилистик формуласининг лингвопоэтикаси ҳақида («Алпомиш» дostonи асосида) // СамДУ илмий тадқиқотлар ахборотномаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 2006. № 2. - Б. 79-82.
23. Маҳмадиев Ш.С. Ўзбек халқ дostonлари тилида стилистик формулалар. Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 2007, 26 б.
24. Мирзаев И. Лексические и морфологические средства формирования семантики рифмы. - Ташкент: Фан, 1990. - 132 с.
25. Мирзаева С. Барқарор эпик формулалар поэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1999. - № 6. - Б. 37-41.
26. Мирзаев Т. «Алпомиш» дostonининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968, - 172 б.
27. Мирзаев Т. «Алпомиш» дostonининг жаҳон халқлари эпик ижодиётида тугган ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1999. - № 6. - Б. 34-37.

28. Раззоқов Х., Мирзаев Т., Собиров О., Имомов К. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Фан, 1980. - 360 б.
29. Раҳимов А.С. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида): Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2002, 27 б.
30. Раҳмонов Б. Ўзбек халқ эпик тузилишининг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти . - Тошкент, 1989. -№ 3. - Б. 36-39.
31. Тўйчибоев Б. «Алпомиш» ва халқ тили.- Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001, - 160 б.
32. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент, 1980. - 248 б.
33. Шоабдурахмонов Ш. Эргаш Жуманбулбул дostonларида ифода ва тасвирийлик // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1970. - № 5. - Б. 43-50.
34. Qosimov B., To'xliyev B., Yo'ldoshev Q. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2004.
35. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. - Тошкент: Фан, 1977. - 152 б.
36. Уринбаев Б., Турсунов С. Лексико-фразеологические особенности дастана «Алпамыш». Монография. - Самарқанд, 2009. - 80 с.
37. Якобсон Р. Поэтика масалалари. Таржимон И.Мирзаев. - Тошкент: ЎМЭ, 2005. - 46 б.
38. Ўринбоев Б., Бозорбоев К. «Алпомиш» дostonида фразеологизмлар // «Ўзбек тили ва адабиёти» журналы, 1999. -№ 4. - Б. 13-16.

II. Lugʻatlar

39. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - М., 1969.- 608 с.
40. Ўзбек халқ шевалари луғати. - Тошкент: Фан, 1971. - 409 б.
41. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. - Тошкент: ЎМЭ, 2002. - 168 б.
42. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1979. - 366 б.

III. Badiiy manbalar

43. Алпомиш. Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони. Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли.
- Т.: Шарқ, 1998. - 400 б.
44. Алпомиш. Айтувчи: Хушбоқ Мардонақул ўғли. - Т.: Ёзувчи, 1998. - 208 б.
45. Alpomish. Aytuvchi: Saidmurod Panoh o'g'li. - Т.: Yozuvchi, 2000.-174 б.
46. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. 1-жилд. Тошкент: Гафур
Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 512 б.